

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI  
NAMANGAN MUHANDISLIK –QURILISH INSTITUTI**

**“Metralogiya standartlash va sifatni boshqarish”**

fanidan amaliy mashg`ulotlarni bajarish uchun

**USLUBIY KO‘RSATMA**



**Aztec Data Matrix Maxicode**



**QR-code Han Xin Dot Code**



**PDF 417**

Ushbu uslubiy koʻllanma 5320400 -Kimyoviy texnologiya (ishlab chiqarish turlari boʻyicha) va 5321000 –Oziq ovqat texnologiyasi (yog` moy texnologiyasi boʻyicha) taʼlim yoʻnalishlari talabalari uchun moʻnjallangan.

**Tuzuvchi:**

M.H.Dadamirzayev

“Kimyoviy va oziq-ovqat texnologiyalari” kafedrasida dotsenti v.b.

**Taqrizchi:**

X.Qanoatov

NamMTI “Oziq-ovqat texnologiyasi” kafedrasida mudiri, t.ϕ.n. dotsent

Ushbu uslubiy koʻllanma 2022 yil \_\_\_\_\_ “\_\_\_” raqamli «Kimyoviy va oziq ovqat texnologiyalari» kafedra majlisida tasdiqlangan va foydalanish uchun tavsiya etilib chop etishga ruxsat berildi.

Ushbu uslubiy qoʻllanma Namangan muxandislik-qurilish instituti kengashida muhokama qilingan va foydalanish uchun tavsiya etilib chop etishga ruxsat berildi.

(bayonnoma №\_\_\_\_) “\_\_\_” \_\_\_\_\_2022 yil

Namangan muxandislik-qurilish instituti oʻquv uslubiy boshqarmasida \_\_\_\_\_son bilan roʻyxatga olingan.

## KIRISH

O'zbekiston Respublikasi prezidenti tomonidan 1996 yil 30 avgust 483-1 sonli O'zbekiston Respublikasining qonuni oziq ovqat mahsulotining sifati va xavfsizligi to'g'risida qonun imzolandi. Ushbu qonun 18 moddadan iborat bo'lib, unda asosan oziq-ovqat mahsulotlarini sifati va xavfsizligiga qo'yilgan talablar hamda ularni sertifikatlashtirish va nazorat qilishga qaratilgan. Xozirgi kunga kelib ishlab chiqarish tarmoqlarida oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talab oshib bormoqda. Shu bilan birga xavfsizlik va sifatga bo'lgan talab ham oshib bormoqda. Bu sohalarida ishlarni olib boorish uchun etuk malakali mutaxassislar kerak bo'ladi. Sifat va xavfsizlik talablarini ijrosini taminlash uchun malakaviy kadrlar tayyorlashga qaratilga ushbu fanning eng asosiy maqsad va vazifasidir.

Bakalavriatura "Oziq-ovqat xavfsizligi" yo'nalishida ta'lim olayotgan 3-bosqich talabalariga "Oziq-ovqat mahsulotlarini sertifikatlashtirish asoslar va hxavfsizlik mezonlari" fanidan tegishli bo'lgan bilimlarni berishga qaratilgan.

Eng asosiy vazifasi bu – talabalarga oziq-ovqat mahsulotlarini sertifikatlashtirish asoslar va hxavfsizlik mezonlari bo'yicha bilim va ko'nikmalarni berish. Sertifikatlashtirish bo'yicha davlat me'yoriy xujjatlari bilan ishlash boyicha bilim va ko'nikmalarni o'rgatish. Mahsulot sifatini ta'minlash, uning jahon bozorida raqobatbardoshligini oshirish va uni boshqarish mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu muommani hal etishda standartlashtirish metrologiya va sertifikatlashtirish muhim rol o'ynaydi, chunki faoliyatning bu yo'nalishi mahsulot sifatini oshirish va ta'minlashning me'yoriy – huquqiy asoslarini yaratishga va dunyo standarti darajasidagi mahsulotlar ishlab chiqishini ta'minlash, jahon bozoriga chiqish hamda ichki bozorni egallashga yo'l ochib beradi.

Inson iste'mol qilgan taomlari hisobidan o'nadi, o'sadi va ijtimoiy faoliyat ko'rsatadi. Uning sog'lig'i va umri iste'mol qilinadigan taom va boshqa mahsulotlar sifatiga bog'liq bo'ladi. Shuning uchun ham ularning sifatiga katta ahamiyat beriladi. Barcha rivojlangan mamlakatlarning tajribasi shuni ko'rsatadiki, mahsulot, shu jumladan oziq-ovqat mahsulotlari, sifati faqat standartlashtirish, sertifikatlashtirish va uni boshqarish faoliyatini o'zluksiz o'tkazish orqali ta'minlanadi. Mahsulot sifatini ta'minlashga uning sifat va gigienik ko'rsatkichlarini me'yorlashtirish va ma'lum bir miqdorlarda chegaralash orqali erishiladi. Bugungi kunda dunyo mamlakatlari halqlari o'zaro hamkorliksiz yashashlari qiyin, chunki bir mamlakat o'zida etishmaydigan mahsulotlarni boshqalaridan olsa, boshqalari esa o'zida ishlab chiqarilgan mahsulotlarning oshiqcha qismini boshqa mamlakatlarga sotadi. Bundan tashqari bir mamlakatda erishilgan fan, texnika va ilg'or tajriba yutuqlaridan dunyoning barcha mamlakatlari ham manfaatdor bo'ladi. Demak, dunyo mamlakatlari o'rtasida xalqaro savdo-sotiq ishlari, ilmiy texnikaviy hamkorlik mavjud bo'ladi va bundan keyin ham davom etadi.

Mamlakatlar hamkorligida xalqaro bozorga chiqariladigan mahsulot va xizmatning sifati o'ta katta ahamiyatga ega, chunki xalqaro bozor raqobatida faqat yuqori sifatli va narxi nisbatan past mahsulot yutib chiqadi. Ichki bozorda va mamlakatlar o'rtasida savdo-sotiq ishlarini amalga oshirishda hamda ilmiy-

texnikaviy hamkorlik qilishda mahsulot yoki xizmatning sifati bilan bog'liq texnikaviy to'siqlar va muammolar kelib chiqishi mumkin. Mahsulot sifati bilan bog'liq texnikaviy to'siqlar va muammolar uning sifat va gigienik ko'rsatkichlarini xalqaro, iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarning standartlari va bugungi kundagi ichki va tashqi bozor talablari bilan uyg'unlashtirilgan standartlar hamda mahsulot sifati bilan bog'liq boshqa me'yoriy hujjatlarni amalga kiritish orqali bartaraf qilinadi. Standartlashtirish, sertifikatlashtirish va sifatni boshqarish iqtisodiy rivojlangan davlatlar qatoriga qo'shilishga intilayotgan hamda xom ashyo bazasidan tayyor mahsulot ishlab chiqaradigan mamlakatga aylanishga harakat qilayotgan O'zbekiston Respublikasi uchun katta ahamiyatga ega. Uning jahon bozorida va iqtisodiy hamkorlikda o'ziga loyiq joyni egallashi uchun barcha sharoitlari (resurslari, qulay iqlim sharoiti va moddiy-texnikaviy bazasi) mavjud. O'zbekiston Respublikasining "Mahsulot va xizmatlarni sertifikatlashtirish to'g'risida" gi qonuni haqida ma'lumotlar berish. Mazkur qonun 4 bob, 23 moddadan iborat bo'lib, O'zbekiston Respublikasida mahsulotlar, xizmatlar va boshqa ob'ektlarni sertifikatlashtirishning huquqiy, iqtisodiy va tashkiliy asoslarini, shuningdek sertifikatlashtirish ishtirokchilarining huquqlari, majburiyatlari va javobgarligini belgilab beradi. Qonunning 1-bobi 1-moddasida sertifikatlashtirish bo'yicha asosiy tushunchalarga alohida ahamiyat berilgan, shuningdek qonunda O'zbekiston Respublikasida sertifikatlashtirish organlari, ularning faoliyati, sertifikatlashtirish ob'ektlari va sub'ektlari, sertifikatlashtirishni o'tkazish shartlari to'g'risida ham ma'lumotlar keltirilgan. 2-bob 7-moddasida ko'rsatilishicha mahsulotni belgilangan talablarga muvofiqligi tasdiqlangan taqdirda sertifikatlashtirish organi muvofiqlik sertifikatini beradi. Tayyorlovchi ana shu sertifikat asosida muvofiqlik belgisini ishlatish huquqiga ega bo'lishi ta'kidlangan va albatta muvofiqlik belgilari sertifikatlashtirish organlari va sinov laboratoriyalarining akkreditatsiya qilinganlik to'g'risidagi guvohnomalari "O'zstandart" agentligi tomonidan belgilangan tartibda Davlat reestridan o'tkazilishi alohida ko'rsatilgan. Ma'lumki, sertifikatlashtirish ishlari davlat tomonidan moliyaviy ta'minlanadi.

## **1-Amaliy mashg'ulot**

### **Halqaro ST tizimidagi birliklar**

Sertifikatlashtirish deganda. Mahsulot (buyum, tovar) yoki xizmat muayyan standartga yoki texnikaviy shartlarga muvofiq kelishini tasdiqlash maqsadida o'tkaziladigan faoliyat tushunilib, ushbu faoliyat natijasida mahsulot (buyum, tovar)ning sifati haqida iste'molchini ishontiradigan tegishli hujjat - sertifikat beriladi. Sinash – bu o'rnatilgan muolajaga muvofiq holda bir yoki bir nechta xarakteristikani aniqlash. Sinash laboratoriyasi – sinashlarni o'tkazadigan laboratoriya.

Akkreditlash tizimi – Akkreditlashni o'tkazish uchun protseduralar va boshqaruvning o'z qoidalariga ega bo'lgan tizim. Akkreditlash – Protsedura bo'lib, uning vositasida vakolatli idora shaxs yoki idoraning muayyan ishni bajarish huquqiga ega ekanligini rasmiy tan oladi. Akkreditlash bo'yicha idora – Akkreditlash

tizimini boshqaruvchi va akkreditlashni o'tkazuvchi idora. Inspektsiya tekshiruvini – sertifikatlashtirish va akkreditlashda o'rnatilgan talablarga muvofiqligini tasdiqlash maqsadida sertifikatlashtirilgan mahsulot, sifat yoki ishlab chiqarishni boshqarish tizimlari, sertifikatlashtirish bo'yicha idoralar, sinash laboratoriyalari (markazlari) ning faoliyatini takroriy baholash protsedurasi.

Xalqaro birliklar tizimi (SI - Systeme Internationale) fransuzcha: Systeme International d'Unités) — fizik kattaliklarning asosiy va hosilaviy o'lchov birliklar tizimi. O'lchov va tarozilar bo'yicha Parijda o'tkazilgan 11 Bosh konferensiyada qabul qilingan (1960). Xalqaro birliklar tizimni yettita asosiy birlik, ikkita qo'shimcha birlik va hosilaviy birliklar tashkil etadi. Asosiy birliklar: uzunlik birligi — metr (m), massa birligi — kilogramm (kg), vaqt birligi — sekund (s), termodinamik tra birligi — Kelvin (K), tok kuchi birligi — amper (A), yorug'lik kuchi — sham, kandela (kd) va modsa miqdori — mol (mol). Ko'shimcha birliklar: yassi burchak birligi — radian (rad), fazoviy burchak birligi — steradian (ster). Hosilaviy birliklar asosiy ulchov birliklaridan foydalanib ma'lum fizik qonuniyat asosida aniqlanadi. Bunda koeffitsiyent ulchamga ega emas va birga teng deb olinishi kerak.

Fizik kattalikning berilgan birliklar tizimidagi asosiy fizik kattaliklar ulchamlari bilan bog'lanishi ifodasiga shu kattalikning o'lchamli'gi deb ataladi. SI tizimida asosiy kattaliklar uzunlik, massa, vaqt, elektr toki kuchi, termodinamik tra, yorug'lik kuchi, modda miqdori o'lchamlilari moye ravishda L, M, T, I, Q, J, L^orkali ifodalanadi.

Xalqaro birliklar tizimit. fan va texnikaning barcha sohalarini o'z ichiga kamrab oladi. Xalqaro birliklar tizimit.da mexanik, issiklik, elektr, magnit va boshqa kattaliklar o'zaro bog'langan buladi. Ushbu tizimning asosiy va hosilaviy birliklari amaliy o'lchashlar uchun juda qulay hisoblanadi.

Butun dunyoda ilm-fan, texnika va ta'lim yo'nalishlarida, mahsulot va hizmatlarning parametrlarini ifodalash uchun qabul qilinga Xalqaro Birliklar Tizimi - SI (System Internationale) o'z ichiga quyidagi jadvalda keltirilgan 7 asosiy birlikni qamrab oladi. SI bo'yicha qabul qilingan amaldagi boshqa barcha birliklardan keltirib chiqariladigan ushbu 7 birliklarning hosilaviy birliklardir Jadvalda birliklarning ifodaviy belgilanishi, xalqaro qabul qilingan ta'rifi, va qabul qilingan sanasi keltirilgan.

BIRLIKLAR						Qabul qilingan vaqti
№	Kattalik Nomi	Birlik nomi	Belgilanishi		Ta'rifi	
			O'zbekcha	Xalqaro		
ASOSIY BIRLIKLAR						
1	Uzunlik	Metr	m	m	<u>Metr</u> - $c$ yorug'likning vakuumda tarqalishining $1/299792458$ soniya vaqt oralig'ida bosib o'tgan masofa qismiga teng	1983-yil, O'TXQ ning XVII bosh konferensiyasi .
2	Massa	Kilogram	kg	kg	<u>Kilogram</u> - Kilogramm bu – atom soatidagi seziy-133 atomlari bilan bir xil chastotada ossilyatsiyalanuvchi $1,4755214 \cdot 10^{40}$ dona fotonlarning energiyasiga teng.	2018-yil, O'TXQ ning XXVI-konferensiyasi .
3	Vaqt	Soniya (sekund)	s	s	<u>Soniya</u> - Seziy 133 atomi asosiy holatining ikkita o'ta nozik sathlari orasidagi bir biriga o'tishiga muvofiq keladigan nurlanishning $9192631770$ davriga teng	1967-yil, O'TXQ ning XIII-konferensiyasi .
4	Tok kuchi	Amper	A	A	<u>Amper</u> - vakuumda bir biridan 1 metr masofada joylashgan ikkita parallel o'tkazgichdan o'tganda, o'tkazgichning har bir 1 metr uzunligida $2 \cdot 10^{-7}$ Nyuton o'zaro ta'sir kuchi hosil qiladigan o'zgarmas tok kuchidir.	1946-yil, O'TXQ ning IX-konferensiyasi .
5	Termodinamik harorat	Kelvin	K	K	<u>Kelvin</u> - suvning uchlanma nuqtasi termodinamik haroratining $1/273.16$ ulushiga teng.	1967-yil, O'TXQ ning XIII-konferensiyasi .
6	Modda miqdori	Mol	mol	mol	<u>Mol</u> - massasi $0.0012$ kg bo'lgan $^{12}\text{C}$ uglerodda qancha atom bo'lsa, o'z tarkibida shuncha struktur element tutgan sistemaning modda miqdoridir. Molni tadbiq etishda struktur elementlarni o'ziga xoslash tirish kerak. Bu o'ziga xoslashtirish atom, molekula, ion, elektron va shunga o'xshash zarrachalar yoki, zarrachalar guruhi sifatida namoyon bo'lishi mumkin.	1971-yil, O'TXQ ning XIV-konferensiyasi .
7	Yorug'lik kuchi	Kandela	kd	cd	<u>Kandela</u> - berilgan yo'nalishda chastotasi $540 \cdot 10^{12}$ gerts bo'lgan monoxromatik nurlanish taratuvchi manbaning yorug'lik kuchiga teng, bu nurlanishning energetik yorug'lik kuchi shu yo'nalishda $1/683$ Vt/sr ni tashkil etadi	1979-yil, O'TXQ ning XVI-konferensiyasi .

## 2-Amaliy mashg`ulot

### Kalibrlash ST tizimiga birliklarni o`tkazish tartibilari

O`lchov vositalarini kalibrlash - metrologiya jihatlarining haqiqiy qiymatlarini va o`lchov birliklarining qo`llashga yaroqliligini aniqlash hamda tasdiqlash maqsadida kalibrlash laboratoriyasi bajaradigan operapiyalar majmud; O`lchov vositalarini yasash (ta`mirlash, sotish, ijaraga berish) uchun litsenziya - davlat metrologiya xizmati tomonidan yuridik va jismoniy shaxslarga beriladigan, mazkur faoliyat turlari bilan shug`ullanish huquqini guvohlantiruvchi hujjat. O`lchov vositalarni tekshiruvdan o`tkazish -o`lchov vositalarining belgilab qo`yilgan texnik talablarga muvofiqligini ainqlash va tasdiqlash maqsadida davlat metrologiya xizmati organlari (vakolat berilgan boshqa organlar, tashkilotlar) tomonidan bajariladigan operatsiyalar majmui; O`lchov vositasi - o`lchovlar uchun foydalaniladigan va normalangan metrologik xususiyatga ega bo`lgan texnika vositasi; O`rov (upakovka) - 1) tovar solinuvchi, joylashtiriluvchi idish, material. Tovar ishlab chiqarilgandan so`ng uning xususiyatlarini saqlash hamda yukni tashishda qulaylik yaratish uchun mo`ljallanadi; 2) muhim reklama manbai. Xalqaro standart – bu standartlashtirish bo`yicha shug`ullanadigan xalqaro tashkilot tomonidan qabul qilingan va iste`molchilarning keng doirasi uchun yaroqli bo`lgan standart. Xalqaro standartlashtirish - bu barcha mamlakatlarning tegishli idoralari erkin holda ishtirok etishi mumkin bo`lgan standartlashtirish. Hujjat – bu ma`lumotlar yozilgan manbadir. Yagona o`lchov birligi - o`lchovlarning natijalari qonunlashtirilgan birliklarda aks ettirilgan va xatoliklari berilgan ehtimollikda ma`lum bo`lgan o`lchov holati;

O`LCHASH VOSITALARI TURLARI VA USULLARI 1. O`lchash vositalarining turlari va metrologik xarakteristikalarini. 2. O`lchash usullarining klassifikatsiyasi. 1. O`lchash vositalarining turlari va metrologik xarakteristikalarini. Normalangan metrologik xarakteristika (NMX) hujjatlar asosida o`rnatiladi. Amaliyotda o`lchash vositasining quyidagi metrologik xarakteristikalarini keng tarqalgan:

O`lchash diapazoni – bu o`lchanayotgan kattalikning shunday qiymatlar sohasidirki, uning uchun o`lchash vositasi xatoliklarning yo`l qo`yiladigan chegarasi me`yorlangan bo`ladi.

O`lchash chegarasi – bu o`lchash diapazonining eng katta va eng kichik qiymati. Shkalaning bo`lim qiymati – bu kattalik qiymatlarining farqi bo`lib, shkalaning ikkita qo`shni belgisiga mos keladi. Tekis shkalali priborlar doimiy bo`lim qiymatiga ega bo`ladi, notekis shkalalilari esa o`zgaruvchan bo`lim qiymatiga ega bo`ladi. Sezgirlik  $S = \Delta y / \Delta x$  : - bu o`q chiqishidagi signal o`zgarishi  $\Delta y$  ning bu o`zgarishni yuzaga keltirgan kirishdagi  $\Delta x$  signal o`zgarishiga nisbatidir va bunda sezgirlik tok va kuchlanish bo`yicha sezgirlik deb tushuniladi. Variatsiya – ma`lum sharoitlar o`zgarmas bo`lganida o`lchash diapazonining berilgan nuqtasida kattalik qiymatini orttirib yoki kamaytirib o`lchashdagi o`lchash vositasi ko`rsatishlari orasidagi farq.  $H = |X_{ort} - X_{kam}|$

Umumiy holatda barcha o`lchash jarayoni qismlarida xatolik sodir bo`lishi mumkin bu esa fizik o`lchamlarning naminal o`lchamlardan farqini bildiradi. Bu

xatoliklar o'rnatilgan chegarada sodir etilishi mumkin bo'lib, mahsulot sifatini kafolatlaydi.

O'lchamlarni o'lchashda quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Kalibr plitkasi
2. Mikrometr
3. Proektr profili
4. Jarayonlarda o'lchamlarni o'lchash
5. Mexanik usullar
6. Optik usullar
7. Pnevmatik usullar
8. Yuqori tovushli
9. Jarayonning tekshiruv qismi

An'anaviy o'lchashlar ishlab chiqarish jarayonining bir qismi sifatida amalga oshiriladi. Bu tekshiruv jarayoni o'lchashdir. Tekshiruv jarayonida o'lchash kichik ehtiyot qismlarning yuqori miqdorda ishlab chiqarilishidir. Inspeksion jarayon an'anaviy usulda bajarilgan bo'lishi mumkin. Agar o'lchamlar berilgan chidamlilik doirasida bo'lmasa tuzatishlar keyingi qismida qurilma orqali amalga oshiriladi. Kalibr plitkasi. O'lchov qismlari quyidagilardan iborat: alohida kvadratli to'g'ri burchakli yoki turli o'lchamlardagi aylanaviy metall bloklar. Ularning sirti 1- 5 mikro dyumda oralig'ida yassi va parallel joylashgan. Datchik bloklari turli o'lchamlar to'plamida qo'llaniladi. Bloklar turli xil ko'p kombinatsiyalarda yig'iladi va istalgan o'lchamlarni olish mumkin. Datchik blokini yig'ish aniq uzunikdagi ma'lumot sifatida, qism uzunliklarini o'lchash uchun foydalaniladi.

Mikrometr. Mikrometr odatda qismlarning enini ham tashqi yoki ichki o'lchamlarini o'lchashda ishlatiladi. Mikrometr chuqurliklarni o'lchashda ham foydalaniladi. Mikrometrlar hisoblash xatoliklarini kamaytirish maqsadida raqamli hisoblash bilan ta'minlanishi mumkin. Proektor profilya. Proektor profilya namunalar aniqligining ikkilik konturi va boshqa bajarilgan ishlarni o'lchashda foydalaniladi. o'lchangan qism optik tizimda kattalashtiriladi va ekranda namoyish etiladi. Ekranda o'qish qismlarni o'lchash imkonini beradi. Quyidagilar Proektor profilyaning surati.

Darajalash xarakteristikasi (DX) deb eksperiment yo'li bilan o'lchash vositasi chiqish va kirish signali orasidagi bog'lanishga aytiladi. Bu xarakteristika – analitik, grafik va jadval ko'rinishida berilishi mumkin. DX ichki va tashqi sabablar ta'sirida o'zgarishi mumkin. Masalan: tokning tez o'zgarishida o'lchash vositasi qo'zg'almas qismi inertsiyasiga ko'ra tok o'zgarishini kuzata olmaydi. O'lchash vositasi xatoligi – uning asosiy metrologik xarakteristikasidir. Asosiy xatolik – bu o'lchash vositasining normal ekspluatatsiya sharoitidagi xatoligidir.

### **3-Amaliy mashg'ulot**

#### **Shitirih chiziqlar ekspertizasi**

Shtrix (shtrixkod) - sirtga qo'llaniladigan, markirovka qilish yoki qadoqlash hamda texnik vositalar bilan o'qish imkoniyatini ifodalovchi qora-oq rangli chiziqlar shaklidagi grafik ma'lumot.



Shtkartaning tarixi 1948 yilda aspirant Bernard Silver tomonidan mahalliy oziq-ovqat zanjiri boshlig'i va Drexel universiteti Texnologiya institutining dekani o'rtasida suhbatini eshitilganda, u mahsulot haqida ma'lumotni avtomatik ravishda o'qitish uchun tizimni ishlab chiqishni so'ragan. Bir muncha vaqt o'tgach, Woodland bugun foydalanadigan shtrix prototipini ixtiro qildi.

Shtrix turlari Ikki turdagi chiziqli chiziqli (stripli) va ikki o'lchamli chiziqlar mavjud. Lineer barkodlar faqat bir yo'nalishda (gorizontal) o'qiladi. Eng keng tarqalgan lineer barkodlar quyidagilardir:

Universal Mahsulot Kod (UPC - A , UPC - E ) - Amerika shtrix kodi, 1973 yilda ishlab chiqilgan. UPC-A 12 ta raqamdan iborat, UPC-E - 8 ta raqam, EAN kodlashning boshlanishi. UPC kodi faqat raqamlardan iborat. 2005 yilda Amerikaning UCC kompaniyasi, Kanada ECCS va Yevropa EAN kompaniyasi GS1 global standartlashtirishni tashkil etish uchun birlashdilar.

Evropa Maqola Nomlanishi (EAN -8, EAN -13, EAN -128) - Mahsulot identifikatori va ishlab chiqaruvchisini kodlovchi Evropa shtrix kodi.

Indeks 8 va 13 shtrixkodning raqamlari sonini bildiradi. EAN-8 EAN -13ni qo'llash uchun qulay emasligi uchun mahsulotlarni markalash uchun ishlab chiqilgan. Shtrix o'lchamini qisqartirish yechim emas, chunki bu skanerlarning kengligini pasaytiradi, bu esa, o'z navbatida, skanerning yetarli darajada yuqori piksellar bilan o'qilmasligiga salbiy ta'sir qiladi.

E'tibor bering! EAN-128 Kod 128 alifbosi bo'yicha har qanday harf va raqamni kodlaydi. EAN standarti hozirgi kunda barcha mamlakatlar uchun universal, shu jumladan AQSh va Kanada.

Codabar - A, B, C, D. to'rt belgidan iborat. Har bir belgi quyidagilardan iborat 7 ta elementni o'z ichiga oladi: "-", "+", "\$", "/", ".", " 4 ta zarb va 3 ta bo'shliq mavjud. Ushbu shtrixkodning afzalligi 6 ta maxsus belgini kodlash imkoniyatini o'z ichiga olishi kerak. Ahvolga tushib qolish juda muhimdir va birlik maydoni bo'yicha ma'lumotlarning past taqsimoti (1 belgiga 5,5 mm).



Cod ga 128 - raqamlar, harflar va maxsus belgilarni kodlash imkonini beruvchi shtrix kod. Raqamli kod bitta shtrix kodli modulda ikki raqamni qayd etish uchun juda ixcham.

Alifbo belgilar uchun standart yozish yondashuvi qo'llaniladi, shuning uchun raqamli raqamlardan ikki barobar ko'pdir.



geek-nose.com

## Code 128

Ikki o'lchovli shtrix kodlari chiziqli chiziqli kodlarning asosiy kamchiliklarini bartaraf etish uchun yaratilgan - katta hajmdagi ma'lumotni yozib bo'lmaydigan.

Misol uchun, QR kodida UTF-8da kodlangan 7089 raqam, 4295 raqam va harflar, Windows-1251 yoki 1450 harflari bilan kodlangan 2953 harfni yozishingiz mumkin. Shtrix kodi gorizontal va vertikal yo'nalishda amalga oshiriladi.




Aztec



Data Matrix



Maxicode



QR-code



Han Xin



Dot Code



PDF 417

## 4-Amaliy mashg`ulot

### Shitrix kodlarni xisoblash va mahsulotni orginaligini baxolash

Kodlashtirish amaliyoti – mahsulot yoki xizmatni rivojlanishni yaxshilash, ishlab chiqarish, qo'llash, saqlash, tashish, sotish, texnik reglamentga mosligini ta'minlash uchun ishlab chiqilgan. Mahsulot kodini ishlab chiqish, tasdiqlash va ro'yxatga olish tartibga soluvchi organlar tomonidan amalga oshiriladi. Mahsulot haqidagi axborotlarni kodlashni bir necha usuli mavjud. Shtrix kod . Shtrix kod o'zi maxkamlangan ob'ekt haqidagi ma'lumotlarni saqlovchi kod xisoblanadi. Shtrix kodlar ma'lumotlarni bir biridan turli oraliqda joylashgan, turli qalinlikdagi parallel chiziqlar mahsulot to'risidagi ma'lumotni taqdim etgan. Bunday shtrix kodlar bir o'lchamli shtrix kodlardir (1D). Keyinchalik to'g'ri burchak, nuqta, 6 burchak va turli hil geometrik shaklga ega shtrix kodlar ishlab chiqildi, bu shtrix kodlar 2 o'lchamli (2D) shtrix kodlardir.

Shtrix kodlar maxsus optik skanerlar o'qish skanerlari yordamida skaner qilinadi. Keyinchalik dasturiy ta'minotning rivojlanishi kamerali smartfonlar yordamida shtrix kodni o'qish imkonini berdi. Eng avval bir tipdagi shtrix kodlar Amerikaning temir yo'llar assotsiyasida 1960 yil oxirlarida ishlab chiqilgan. Shtrix kodlar supermaketlarni kassa tizimini avtomatlashtirishda ishlatila boshladi va samaradorligi oshdi. Shtrix kodlar turli boshqa masalalarni yechishda qo'llanila

boshlandi. Umumiy qilib aytganda ma'lumotni avtomatik ravishda yig'ish va indentifikatsiya qilish (ATSD) vazifasini bajardi.

Simvolika Displayda xabarlar va shtrix kodlar orasi - simvolika deyiladi. Simvolikaning o'ziga xosligi xabarlarining alohida raqamlari va simvollarini kodlashdir. Chiziqli simvolika asosan ikki xossa asosida klassifikatsiyalanadi. Uzluksiz kod. Diskred kodlarda simvollar N shtrixlar va N-1 oraliqlardan tashkil topgan. Simvollar orasida qo'shimcha maydon mavjud, lekin bu maydon hech qanday axborotni uzatmaydi va kodni oxiriga yetmaguncha istalgan kenglikda bo'lishi mumkin. Uzluksiz kodlarda simvollar N shtrix va N maydondan tashkil topgan, probel va shtrixlar ketma ketligidan iborat. Kodni yakunlash uchun ikki tarafida shtrixga ega yakunlovchi shablon mavjud. Ikki kenglikda kodlar, ko'p kengliqdagi kodlar o'rniga. Ikki kenglikdagi kod yana ikkilik kodi deb xam ataladi, unda shtrixlar va oraliqlari ikki hil kenglikda «keng» va «ingichka» bo'ladi. Shtrix va probellarning aniq bir kengligini axamiyati yo'q. Ingichka ekvivalentlardan 2 va 3 martagacha istalgan deypazonda bo'lishi mumkin. Ayrim simvolikalar ikki hil balandlikda yoki shtrixlarning bo'lishi va bo'lmasligi ham mumkin. Bular ham ikkilik kodlar (binar) deyiladi.

Shtrixlar va oraliqlar ko'p kenglikdagi kodlarda asosiy kenglikga ko'paytmasi modullar deyiladi. Bu kodlarning aksariyatida 1, 2, 3, 4 kenglik modullari ishlatiladi. Birinchi simvol xar xil kenglikdagi qora chiziqlar orqali kodlanadi, ikkinchi simvol oq oraliqlari kengligini o'zgartirish yo'li bilan kodlanadi. Shunday qilib simvollar juft bo'lib kodlanadi. 2D shtrix kodlar orasida eng ko'p tarqalgani, bu matritsali shtrix kodlardir. Bu kodlarda to'rt burchakli yoki nuqtasimon modul setka ustida tarqalgan. Chiziqli shtrix kodlar lazerli skanerlar yordamida o'qiladi, to'g'ri chiziq bo'ylab shtrix yorug'lik nuridan o'tqaziladi.

Aralash shtrix kodlardan lazerli skaner orqali o'qiladi. Shtrix kod lazerli skanerdan bir necha marta o'tkaziladi. 1990 yil Welch Allyn shtrix kodni o'qiydigan zaryadlash aloqa (PZS) tomografini yaratdi. Bu tomograf lazer skanerga o'xshab xarakterni talab etmaydi. Ya'ni, tomografdan shtrix kodni yurg'izish shart emas. 2007 yilda lazer skanerni o'rniga samarador va mustaxkam bo'lgan chiziqli dvigatel skanerlari egalladi. 2D shtrix kodlarni lazer skanerlari yordamida o'qib bo'lmaydi, chunki lazer skanerlar simvolni lazer yordamida butunligicha o'qiy olmaydi. Bu 2D shtrix kodlar PZS tomograf yoki boshqa sensori texnologiyali yoki raqamli kamera yordamda o'qiladi.

## **5-Amaliy mashg'ulot**

### **Tovarlarni siniflash va kodlashning tamoyillari va usullari**

Tovar - 1) eng umumiy ko'rinishda bozorda sotiluvchi mahsulot sifatida ifodalanishi mumkin bo'lgan iqtisodiy toifa, oldi-sotdi obyekt; 2) mahsulotning ma'lum bir xaridorlar ehtiyojini qondiruvchi asosiy iste'molchilik tavsifnomalari majmui; 3) iste'molchiga ko'rsatiladigan, mahsulotni to'ldiruvchi va uni sotishni engillashtiruvchi xizmat va imtiyozlar; 4) mahsulotni urab turuvchi «muhit» (mahsulot dizayni, sifati, markasi, urovi).

Tashqi savdo vazirligi ekspert tashkilotlari tovarlarni TIF TN kodlari bo'yicha tasniflash xizmatlarini ko'rsatishi reglamentini ishlab chiqdi.

Amaldagi qonunchilikda ekspert tashkilotlari tovarlarni TIF TN kodlari bo'yicha tasniflash xizmatlarini ko'rsatishi tartibini belgilovchi normalar va uni tartibga solish mexanizmi mavjud emas. Tegishli nizomlarning tasdiqlanishi zarur huquqiy asos yaratadi.

Ekspert tashkiloti deganda, mulkchilik shaklidan qat'i nazar, shtatida tovarlarni TIF TN kodlari bo'yicha tasniflovchi va ekspert xulosasi beruvchi sertifikatlangan ekspert bo'lgan yuridik shaxs tushuniladi.

Ekspertlarni malaka imtihonidan o'tkazish va undan muvaffaqiyatli o'tganlarida sertifikat berish tartibini belgilash taklif etilmoqda. Ushbu chora TIF TN tovar kichik yordamchi pozitsiyalariga nisbatan joriy etiladigan tarif va notarif tartibga solish normalari bir xil tasniflanishi va to'g'ri qo'llanilishini ta'minlashga imkon beradi.

Ariza beruvchi ekspert xulosasini olish uchun ekspert tashkilotiga quyidagilarni taqdim etishi kerakligini belgilash rejalashtirilmoqda:

- belgilangan shakldagi ariza;
- import qilinayotgan tovarlarning tovarga ilova qilinadigan hujjatlari (temir yo'l, avia yoki yukka tegishli yukxatlar, invoys, kontrakt yoki shartnoma);
- kelib tushgan (import qilinayotgan) tovarning o'rab-joylangan va muhrlangan namunasi (nusxasi) (yirik hajmli tovarlar saqlash joyida o'rganiladi);
- tovarlarni tasniflashda asosiy tasniflash mezonlari yetarli bo'lmagan va mazkur hujjatlar mavjud bo'lishi talab etiladigan hollarda texnologik jarayon tavsifi, akkreditatsiyalangan va (yoki) attestatsiyalangan laboratoriyalarning sinov natijalari, texnik tartibga solish sohasidagi milliy va (yoki) xalqaro normativ hujjatlar;
- ariza beruvchining xati bilan taqdim etilgan, TIF TN kodlari bo'yicha tasniflash uchun zarur bo'lgan prospekt, katalog, texnik pasport, qo'llanma yoki tovar haqida axborot.

Ekspert tashkilotlarining vakillariga zarur hollarda bojxona nazorati ostida va tovarga nisbatan vakolatlarga ega bo'lgan shaxs hozirligida, zarur bo'lganda – mutaxassis ishtirokida tovarlardan namuna va nusxalar olish huquqini berish taklif etilmoqda.

Tovarlarni tavsiflash va kodlash bo'yicha uyg'unlashtirilgan tizim (SA) - xalqaro miqyosda sotiladigan mahsulotlarni toifalarga ajratish bo'yicha dunyoda tan olingan tizim. Ushbu tizim bojxona bojining asosini tashkil etadi. Eksportni belgilangan bojxona rasmiylashtiruviga kelganda minimal uzilishlarga duch kelishini ta'minlash uchun xalqaro yuk tashish paytida soliq stavkalarini to'g'ri aniqlash kompaniyalar uchun odatiy muammo hisoblanadi. Boshqa tomondan, u mahsulotni chegaralar orqali yuborish uchun talab qilinganidan ko'proq pul to'lamaslikka intiladi. Uyg'unlashtirilgan tizim bu jarayonning ajralmas qismidir.

Uyg'unlashtirilgan tizim kodlari import qilinadigan yoki eksport qilinadigan har bir mahsulotni tavsiflash uchun ishlatiladigan global indeksni o'z ichiga oladi. Bu xalqaro savdoda ishlatiladigan mahsulotlar uchun standart kodlash va belgilash

tuzilishi. Uyg'unlashtirilgan tizim kodlari import qilinadigan yoki eksport qilinadigan har bir mahsulotni tavsiflash uchun ishlatiladigan global indeksni o'z ichiga oladi. Bu xalqaro savdoda ishlatiladigan mahsulotlar uchun standart kodlash va belgilash tuzilishi. Uyg'unlashtirilgan tizim 1988 yilda ishga tushirilgan va Jahon bojxona tashkiloti shu vaqtdan beri uni qo'llab-quvvatlamoda. Ushbu qoidalar to'plami mamlakatda mahsulotga nisbatan qo'llaniladigan soliq stavkasini aniqlash uchun soliq maqsadlarida qo'llaniladi.

### Uyushgan tizim nima?

Uyg'unlashtirilgan tizim bu mahsulot va tovarlarni barcha xalqaro savdo darajasida tavsiflash, kataloglash va kodlash vositasi. Uning maqsadi xalqaro chegaralarga kiradigan yoki o'tadigan mahsulotlarni tasniflashning universal tizimini ta'minlashdir. HS kodlari transchegaraviy idoralarga, qaysi tillarda va mahalliy tariflardagi farqlardan qat'i nazar, import qilinadigan va eksport qilinadigan narsalar to'g'risida umumiy ma'lumotga ega bo'lishga imkon beradi. Uyda saqlagan yoki sotib olgan har qanday narsa HS belgisi ostida tasniflanadi. Tormoz balatalari va maishiy lampalardan hamsi va dafna barglariga qadar har bir mahsulotga mos keladigan SA kodi mavjud.

### Tuzilishi

Besh mingdan ziyod mahsulot to'plami bilan uyg'unlashtirilgan tizim 97 ta bobda keltirilgan 21 ta bo'limda tovarlarni tasniflashni standartlashtiradi, ular to'rt xonali sarlavhalar va aniqroq olti xonali subtitrlar bilan o'z navbatida tuzilgan. Natijada mahsulot uchun jami oltita raqamdan iborat kod olinadi, har ikkala raqam tegishli bob, sarlavha va subtitrni, shuningdek mahsulot tavsifini aks ettiradi. Garchi uyg'unlashtirilgan tizim mahsulotlarga olti raqamli kodlashni shakllantirsa-da, ko'p sonli bojxona tizimlarida o'nta raqamli tizim ishlatilganligini ko'rish mumkin, unda dastlabki oltita raqam uyg'unlashtirilgan tizimning kodiga to'g'ri keladi.

### Bojxona qoidalariga rioya qilish

Qonunga muvofiq, HS kodini to'g'ri aniqlash va yukni minimal kechikish bilan bojxonadan o'tkazib yuborish imkoniyatini maksimal darajaga ko'tarish uchun ushbu yukga to'g'ri tasnifni qo'llash uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olish kerak.

Xalqaro elektron tijorat haqida gap ketganda, agar HS kodini aniqlash funksiyasi eksport qiluvchi sotuvchiga tushsa, yanada amaliyroq bo'ladi. Elektron tijorat operatsiyalari bilan import qiluvchi ko'pincha oxirgi iste'molchi hisoblanadi va odatda tegishli HS kodini aniqlash uchun eng yaxshi holatda emas.

### Ahamiyati

- Uyg'unlashtirilgan tizim, milliy chegaralaridan qat'i nazar, sotiladigan mahsulotlarning umumiy ko'rinishini ta'minlash orqali xalqaro savdoni kuchaytiradi.

- Bojxona deklaratsiyasini taqdim etishda soliq to'lovchilardan mahsulotlarning tavsifini taqdim etishi shart emas, chunki ular SA kodlari asosida tuzilgan hisob-fakturalardan olinadi.

- Bu tasnifning sistematik shakli bo'lib, bu talqin qilishda xato bo'lish imkoniyatini kamaytiradi.

- Migratsiya paytida mahsulotning SA kodi puxta tanlangan bo'lishi juda muhimdir. Bu to'g'ridan-to'g'ri mahsulotga tegishli soliq stavkasiga ta'sir qiladi.

- Ushbu tizimdan 190 dan ortiq davlatlar soliq stavkalarini tayyorlash va xalqaro savdo statistikasini aniqlashda foydalanadilar.

- Bu tijorat muzokaralari, kvotalarni boshqarish, kelib chiqish sertifikatlari va statistik tahlil uchun asosiy vosita.

- Bu tijorat siyosati, ichki va tashqi soliqlar, yuk va transport stavkalari, narxlar va kvotalarni boshqarish masalalarini tekshirish va nazorat qilish imkoniyatini beradi.

- O'tgan yillar davomida u xalqaro va hukumat, ham xususiy, ham hukumat uchun muhim vosita bo'lib qoldi.

- Bugungi kunda import va eksport hisoblarini boshqarish uchun ushbu kodlarni bilish juda muhimdir.

#### Misol

Masalan, 09 bobdagi uyg'unlashtirilgan tizimda choy va o'tlardan tashqari kofe mavjud. Ushbu bobda "0901" sarlavhasi kofe importini anglatadi. "0901" kofe sarlavhasiga yana ikkita raqamni ("21") qo'shib, bojxonachilar va vositachilar kofe qovurilgan va kofeinsiz yuborilganligini yanada aniqlay olishadi. Shuning uchun, agar import qilingan kofe qovurilgan va kofeinlangan bo'lsa, unga HS kodi "0901.21" beriladi. Oxir oqibat shuni anglatadiki, dunyodagi istalgan bojxona idorasidan qat'i nazar, 0901.21 qovurilgan, tarkibida kofeinsiz qahva uchun universal koddir.

#### Har bir mamlakatning HS kodlari

Ko'pgina mamlakatlar asosiy to'rtta va oltita raqamli HS kodlariga qo'shimcha darajadagi izohlarni qo'shadilar. Ushbu qo'shimcha darajalar mamlakatlarga mahsulot soliqlarini aniqroq boshqarishda va xalqaro savdoni batafsilroq kuzatishda yordam beradi. Amerika Qo'shma Shtatlarida kodlar soliq stavkalarini amalga oshirish va statistik ko'rsatkichlarni batafsil ko'rsatish uchun oxirgi to'rtta raqamdan foydalanib, o'nta raqamgacha kengaytiriladi. *Masalan*, kofe kodida to'rtta qo'shimcha raqam bo'ladi va yakuniy kod 0901.21.0035 bo'ladi. "0035" raqamlarini qo'shish "2 kg va undan kam paketlarda" tavsifini o'z ichiga oladi. 0901.21.0035 uchun soliq bepul. Boshqa mamlakatlarda kodlash bo'yicha o'z konvensiyalari mavjud. Masalan, Braziliya ham, Xitoy ham sakkizta raqamdan foydalanadi. Umumiy qoida bo'yicha, mahsulot import qilinadigan mamlakatga xos kodlardan foydalaniladi. Agar mahsulot

AQShdan Braziliyaga olib kelinayotgan bo'lsa, Braziliyaning HS kodidan foydalanish kerak. Qarama-qarshi yo'nalishda etkazib berilsa, AQSh HS kodidan foydalanish kerak.

## **6-Amaliy mashg'ulot**

### **Tovarlar sifati va tovar iste'mol xossalariga bog'liqligi**

Mahsulot sifati - mahsulot xususiyatlari majmui, uning jamiyat va shaxs ehtiyojlarini qondirish darajasi bilan belgilanadi. Mahsulot sifatini yaxshilash ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va tovar raqobatbardoshligini ta'minlashning muhim sharti (yana q. Tovar sifati)

Oziq - ovqat tovarlari sifati 2 xil usul yordamida aniqlanadi:

1. *Organoleptika usuli.*

2. *Laboratoriya (tajriba) usuli.*

Oziq-ovqat mahsulotlarining sifatini tekshirishda *organoleptik usul* katta rol o'ynaydi. Bu usul bilan ularning ta'mi, hidi, rangi, konsistentsiyasi, tashqi ko'rinishlari kishi sezgi organlari yordamida baholanadi. Organoleptik usulning qulaylik tomonlari shundan iboratki, u ko'p xarajatlar, kimyoviy reaktivlar, asr talab qilmaydi hamda mahsulotning sifati to'g'risida tezda ho'losa chiqarish mumkin bo'ladi. Uning kamchiligi esa bu usulning sub'ektivligidir. Sub'ektivlik deganda shuni tushunish kerakki, kishi sezgi organlari hammada ham bir xil darajada rivojlangan bo'lmaydi. Demak, bu mahsulot sifatiga turli kishilar har xil baho berishlari mumkin degan fikrni anglatadi. Bundan tashqari organoleptik usul bilan tovarlarning sifati tekshirilganda ularning sifat ko'rsatkichlarini raqamlar bilan ifodalab bo'lmaydi yoki mahsulotlarning sifati to'g'risida butunlay atroflicha ma'lumot ham olish qiyin. Masalan, bu usul bilan mahsulotning biologik qiymatini yoki uning bezararligini aytish juda qiyindir. Biroq mahsulotning sifatiga organoleptik usul bilan baho berish yuqori malakali, tajribali degustatorlar ishtirokida olib borilsa, yo'l qo'yiladigan xatolar ham shuncha kam bo'ladi. Ammo shuni nazarda to'tish kerakki, sezgi organlarimiz mahsulotning boshqa tekshirish usullari bilan aniqlash qiyin bo'lgan va aniqlab bo'lmaydigan o'ziga xos xushbo'y ta'm xususiyatlarini tezda seza oladi. Masalan, choy, kofe va vino mahsulotlari tarkibiga kiruvchi xushbo'y hid beruvchi murakkab moddalarni aniqlash juda qiyinligi uchun organoleptik usul ularning sifati va turini belgilashda yagona usuldir.

Oziq-ovqat mahsulotlariga organoleptik baho berishda ta'm bilish xususiyatlari ularning sifatini belgilaydigan asosiy ko'rsatkichlardan biridir. Kishi organizmida ta'mni sezadigan asosiy a'zo tildir. Oziq-ovqat mahsulotlari iste'mol qilinganda sezgi a'zolarining qanday ta'sirlanishini birinchi bo'lib akademik I. P. Pavlov tushuntirib bergan edi. Tilning shillik pardasi va og'iz bo'shlig'ida ta'm bilish bo'rtmalari joylashgan bo'lib, ularga ta'm sezgisini ko'zg'atuvchi moddalar eritmasi ta'sir qiladi. Tilda joylashgan til bo'rtmalarining umumiy soni 9000 dan ortiq deb taxmin qilinadi, shulardan ko'pchiligi tilning uchida, qolganlari tilning yon sathida va orqa qismida joylashgandir. Asosan to'rt xil oddiy ta'm mavjuddir, bular: shirin, sho'r, nordon va achchiq ta'mdir. Boshqa ta'm va ta'm sezgilari bu asosiy ta'm sezgilarining qo'shilishidan hosil bo'ladi: achchiq-sho'r, shirin-nordon, nordon-

shirin, shirin-achchiq, va boshqalar. Oziq-ovqat mahsulotlarining ta'mi, mazasi shu mahsulotning tabiatiga, kimyoviy tarkibiga, mahsulot tatib ko'rilayotgan paytdagi haroratga bog'liqdir.

Mahsulotlarga shirin ta'm beradigan moddalar asosan shakarqand, ko'p atomli spirt (glitserin) va boshqalardir. Ko'pchilik alkaloidlar (kofein, teobramin, xinin) va glyukozodlar (amigdamin, solanin) achchiq ta'mga ega bo'ladi. Nordon ta'mni esa organik (olma, uzum, limon, sut) va mineral (sulfat, xlorid) kislotalar beradi. Oziq-ovqat mahsulotlarining hidi esa ularning sifatiga katta ta'sir ko'rsatadi. Hamma oziq-ovqat mahsulotlari ham ma'lum darajada hidga ega. Ularning hidiga qarab qanday mahsulotligi, buzilgan-buzilmaganligi, tozaligi to'g'risidagi ma'lumotga ega bo'lish mumkin. Asosiy hid bilish organi burun hisoblanadi. Hidni burun ichidagi epiteliy to'qima bilan qoplangan shilliq parda miyaga uzatadi.

Hid beruvchi moddalar ta'm beruvchi moddalarga nisbatan ancha ko'p. Lekin hozirgi kungacha ularning ilmiy asoslangan turlari mavjud emas. shunga qaramasdan, amalda hidlarni quyidagi guruhlarga ajratish mumkin: xushbo'y hid, meva hidi, gul hidi, quyuq hid, em-xashak hidi, achigan narsalar hidi va boshqalar. Hid bilish a'zolarining sezish qobiliyati ham ta'm berish a'zolarining sezish qobiliyati singari haroratga, hid beruvchi moddalar miqdoriga, tekshirish olib borilayotgan xonaning nisbiy namligiga va tozaligiga hamda shu mahsulotni iste'mol qilayotgan kishiga bog'liq bo'ladi. Hid bilish a'zolari ta'm bilish a'zolariga nisbatan katta sezgirlikka egadir. Masalan, kishi 1 m<sup>3</sup> havoda vanilinning miqdori 0,2 mg. yoki skatolning miqdori 0,4 mg. bo'lganda ham ularning hidini seza oladi. Mahsulotlarda turli xil hid beruvchi moddalar aralashmasi murakkab bir xil hid berishi mumkin, masalan, vino, konyak, kofe, choy va pishloqlarning xushbo'y hidi bunga misol bo'la oladi. Oziq-ovqat mahsulotlarining sifatini organoleptik usulda aniqlaganda va standartlarning talabi bo'yicha ham ularning ta'm va hid ko'rsatkichlari birga qo'shib yoziladi va aytiladi.

Bundan tashqari, oziq-ovqat mahsulotlarining organoleptik usulda aniqlanadigan organoleptik ko'rsatkichlariga ularning rangi, tashqi ko'rinishi, konsistentsiyasi ham kiradi. Bu ko'rsatkichlar ko'rish, eshitish va sezish a'zolari yordamida aniqlanadi. Insonning ko'rish a'zosi bo'lgan ko'z yordamida oziq-ovqat mahsulotlarining tashqi ko'rinishi, katta-kichikligi, rangi, shakli, idishlarga qanday joylashganligi, tiniqligi va shu kabilar baholanadi.

Oziq-ovqat mahsulotlarining konsistentsiyasi, tuzilishi hamda harorati barmoqlar uchida hamda og'iz boshlig'i shilimshiq pardasida joylashgan sezgi retseptorlari orqali aniqlanadi. Mahsulotni qo'l bilan ushlab, uning qattiq yoki yumshoqligini aytish mumkin yoki mahsulot iste'mol qilinganda til uchi yordamida darrov ularning harorati haqida ho'losa chiqarish mumkin. Ba'zi oziq-ovqat mahsulotlarining sirtiga biror buyum bilan urib va shundan chiqqan tovushni eshitib ham shu mahsulotning sifati to'g'risida ma'lum bir ho'losaga kelsa bo'ladi.

Hozirgi kunda organoleptik usulning aniqligini oshirish va uni takomillashtirish borasida ancha ishlar qilinmoqda. Mahsulotlarga organoleptik jihatdan baho berishning bir necha usullari bo'lib, ulardan keng qo'llaniladiganlari ball bilan baholash va taqqoslab baho berish usullaridir. *Ball ko'rsatkichi bilan baho berish.* Oziq-ovqat mahsulotlarining sifati asosan 5, 10, 30 va 100 ballik baho bilan



tekshiriladi. Mahsulot sifatini ball orqali baholashda ularning umumiy yig'indisi sifat ko'rsatkichlar bo'yicha ajratiladi.

Oziq-ovqat mahsulotlarini ball berish tartibida baholashning qulayligi shundan iboratki, unda mahsulotdagi har bir kamchilik tegishli ball bilan baholanadi. U shu ko'rsatkich uchun belgilangan umumiy ball sonidan olib tashlanadi. So'ngra standartdagi maxsus jadvaldan qancha ballni olib tashlash kerakligi topiladi. Bu usul mahsulot sifatini tekshirayotgan komissiyaning ishini osonlashtiradi va ma'lum darajada mahsulot sifatiga baho berishning aniqligini oshiradi. Ball ko'rsatkichi bilan baholash tekshirilayotgan oziq-ovqat mahsulotini shu mahsulot etalonlariga, ya'ni standart namunalari taqqoslashga asoslanganidir. Agar mahsulotning namuna holda etaloni bo'lmasa, tekshirilayotgan mahsulot ko'rsatkichlari shu mahsulot qo'llaniladigan tegishli me'yoriy-texnik hujjatlarda yozilgan ko'rsatkichlar bilan solishtiriladi.

Bundan tashqari, tovarlar sifatini baholashning sotsiologik usuli ham mavjud.

*Sotsiologik usul* deb oziq-ovqat mahsulotlarining sifat ko'rsatkichlarini xaridorlar fikriga ko'ra aniqlashga aytiladi. Xaridorlarning talablari esa oziq-ovqat mahsulotlariga sotish ko'rgazmalari tashkil qilinganda, xaridorlar konferentsiyalari va anketalarni tarqatish yo'li bilan o'rganiladi.

Hozirgi kunda tovarlar sifatini aniqlashda ekspert usuli ham keng qo'llanilmoqda.

*Ekspert usuli* deyilganda 7 kishidan kam bo'lmagan yuqori malakali mutaxassis-ekspertlardan (tovarshunos, dizayner, degustator) tashkil topgan ekspert komissiyasining fikri asosida baho berish tushuniladi.

*Tovarlar sifatini aniqlashning tajriba usuli* ularning kimyoviy tarkiblarini, fizikaviy, mikrobiologik, texnologik xususiyatlarini aniqlashda keng qo'llaniladi. Tajriba usuli, o'z navbatida, fizikaviy va fizik-kimyoviy, kimyoviy, mikrobiologik, tovarshunoslik-texnologik usullarga bo'linadi. Bu usulning qulayligi shundan iboratki, unda natija raqamlar bilan va bu natija katta aniqlikda ifodalanadi. Uning kamchiliklari shundaki, mahsulotning sifatini aniqlash uchun ko'p vaqt talab etiladi, aniqlash uchun reaktivlar va maxsus jihozlangan tajribaxonalar talab qilinadi.

*Tekshirishning fizikaviy va fizik-kimyoviy usullari.* Oziq-ovqat mahsulotlarining sifatini tekshirishning bu usullari mahsulotning solishtirma og'irligini, yopishqoqligini, erish, qotish va qaynash haroratini, optik xususiyatlarini aniqlashdan iboratdir. Mahsulotning solishtirma og'irligi va zichligini areometr, piknometr va gidrostatik tarozilar yordamida ulchash mumkin. Ularning solishtirma og'irligi asosida ma'lum darajada kimyoviy tarkibi va sifati haqida so'z yuritish mumkin. Yog'larning erish va qotish harorati asosida ularning tabiatini, tozaligini va ma'lum darajada uning tarkibida qanday yog' kislotalari borligi haqida ma'lumotga ega bo'lish mumkin. Yog'larning erish va qotish harorati yog'ning qattiq holatdan suyuq holatga yoki suyuq holatdan qattiq holatga o'tish paytidagi haroratini termometr bilan o'lchash natijasida aniqlanadi. Oziq-ovqat mahsulotlarining optik xususiyatlari esa

polyarimetriya, refraktometriya, fotokalorimetriya, lyuminestsent hamda xromotografiya usullari yordamida aniqlanadi. Polyarimetriya usuli ba'zi optik faol moddalar eritmalarining nur tebranishlari yo'nalishlarini o'zgartirish qobiliyatiga asoslangan. Masalan, bu usul bilan saxarometr asMA'RUZAi yordamida shakar eritmaları tarkibidagi saxarozaning foiz miqdori va ularning tarkibida qanday shakar moddalari turi borligini aniqlash mumkin.

Refraktometriya usuli bilan oziq-ovqat mahsulotlari tarkibida yog', suv, spirt, qand va boshqa quruq moddalarning foiz miqdorini aniqlash mumkin. Refraktometriya usuli nurning bir muhitdan ikkinchi bir muhitga o'tish paytida yo'nalishining o'zgarishiga yoki nurning sindirish ko'rsatkichi koeffitsientlarini aniqlashga asoslangandir. Masalan, refraktometr yordamida asalning tarkibida qancha suv borligi, sharbatlar tarkibida qancha quruq modda borligi yoki bo'lmasa moy va yog'larning sindirish ko'rsatkichlari orqali ularning tozaligini va buzilgan-buzilmaganligini aniqlash mumkin.

Fotokalorimetriya va spektrometriya usuli esa moddaning nurni o'ziga tanlab singdirish qobiliyatiga asoslangandir. Bu usul bilan rangli eritmalaridagi rang beruvchi moddalarning miqdorini aniqlash mumkin. Tajribaxonalarda FEK-M, FEK-52, FEK-64, FEK-56 va boshqa markali fotoelektrokolorimetrlar ishlatiladi. Spektrometriya usulida esa bir muncha murakkab tuzilgan SF-4, SF-4A, SF-10 va boshqa markali spektrofotometrlar ishlatiladi. shuningdek, bu usullar bilan uzum vinolari va uzum tarkibidagi antotsionlar miqdori, choy va kofeda kofein, kakaoda teobramin, meva va sabzavotlarda esa rang beruvchi moddalarning miqdorini aniqlash mumkin.

Lyuminestsent usuli bilan oziq-ovqat mahsulotlari tarkibida oqsil, yog', vitaminlarning miqdorini, baliq va go'sht mahsulotlarining buzilgan yoki buzilmaganligini, kartoshka va sabzavotlarning kasallanganligini aniqlash mumkin. Bu usul ko'pchilik moddalar ultrabinafsha nurlari bilan yoritilganda o'zlaridan korong'ida ko'rinadigan va har xil rangdor tusga ega bo'lgan nur chiqarishga asoslangan. Xromotografiya usuli murakkab birikmalar tarkibidagi moddalarni bir-biridan ajratish va uni aniqlashning eng qulay usullaridan biridir. Bu usul yordamida esa oziq-ovqat mahsulotlarining kimyoviy tarkibi, ularni saqlaganda bo'ladigan-o'zgarishlar, hid beruvchi va rang beruvchi moddalarning miqdori, oqsillar tarkibidagi aminokislotalarning miqdorini o'rganish mumkin.

*Tekshirishning kimyoviy usuli.* Bu usul yordami bilan oziq-ovqat mahsulotlari tarkibida uchraydigan va ularning sifat ko'rsatkichlarini belgilaydigan moddalarning miqdori aniqlanadi. Bu ular asosida esa oziq-ovqat mahsulotlarini saqlaganda va tashiganda bo'ladigan o'zgarishlarni bilish mumkin. Mahsulotlarning sifatini belgilaydigan kimyoviy ko'rsatkichlarni aniqlash usullari maxsus standartlarda ko'rsatilgan bo'ladi.

*Tekshirishning mikrobiologik usuli.* Bu usul oziq-ovqat mahsulotlarining mikroorganizmlar bilan ifloslanganlik darajasini aniqlash uchun ishlatiladi. Oziq-ovqat mahsulotlari tarkibida mikroorganizmlarning standart darajasidan ko'pligi va ularda kasallik keltiruvchi bakteriyalarning bo'lishi mahsulotlarni saqlash uchun belgilangan joylar iflos tutilishidan va ularni saqlash hamda tashishda sanitariya

qoidalariga rioya qilinmasligidan dalolat beradi. Oziq-ovqat mahsulotlari ustidan olib boriladigan mikrobiologik nazorat aholi bo'limlarida sanitariyaga oid va epidemiyaga qarshi butun ishlarni tashkil qiladigan va o'tkazadigan asosiy muassasa sanitariya-epidemiologiya stantsiyalari (SES) orqali amalga oshiriladi.

*Tekshirishning tovarshunoslik-texnologik usuli.* Bu usul bilan oziq-ovqat va qishloq xo'jalik mahsulotlarining qayta ishlashga yoki uzoq saqlashga yaroqli yoki yaroqsizligi aniqlanadi. Masalan, mevalar navlarining murabbolar tayyorlashga yaroqli yoki yaroqsizligini bilish uchun avvalo ulardan tajribaxonada kichik hajmda namunalar tayyorlanadi va shu asosda ma'lum bir ho'losaga kelinadi. Sifat ko'rsatkichlarining sonli kattaliklari o'lchash (laboratoriyada), ro'yxatga olish, hisoblash, organoleptik, ijtimoiy va ekspertlash usullari bilan aniqlanadi. O'lchash usuli turli as-uskunalar, reaktivlar va o'lchashning boshqa texnik vositalari yordamida amalga oshiriladi. Ro'yxatga olish usuli aniq bir predmetni yoki xarajatni kuzatish va hisoblab borishga asoslangan (ma'lum davr oralig'ida televizorning necha marta ishlamay qolishi, bir partiyadagi mahsulotlarda nuqsonliklarining soni kabilar). Hisoblash usuli ma'lum bir xususiyat ko'rsatkichini nazariy va empirik bog'liqliklar asosidagi boshqa xususiyatlar ko'rsatkichlari yordamida hisoblashni ko'zda tutadi. Masalan, po'latning qattqlik ko'rsatkichi bo'yicha uning tortish kuchiga nisbatan mustahkamligi aniqlanadi.

Organoleptik usulda esa kishining sezish organlari yordamida tovarning xos sifat ko'rsatkichi aniqlanadi (ko'rish, eshitish, hid bilish, his qilish, ta'm bilish kabilar orqali). Bunda sifat ko'rsatkichlari odatda ballarda hisoblanadi.

Ijtimoiy usulda tovarning sifati tovar haqida iste'molchilar bildirgan fikr-mulohazalar asosida baholanadi. Bunday baholash iste'molchilar o'rtasida og'zaki so'rovlar o'tkazish orqali, savolnomalar tarqatish orqali, turli ko'rgazmalar tashkil etish orqali amalga oshiriladi.

Tovarlar sifatini baholashning ekspert usulidan asosan ularning estetik, ergonomik talablarga qanchalik mos kelishini baholashda foydalaniladi. U organoleptik usulga o'xshash, faqat bu usulda professional ekspertlar yoki ekspertlar guruhi ishtirok etadi va baholash ancha ob'ektiv bo'ladi. Sifatni baholash deganda mazkur tovarning iste'molchi ehtiyojlariga qanchalik mos kelishini aniqlash tushuniladi. Biroq amalda ehtiyojni son bilan belgilash, aniqlash ancha mushkul. Shu sababdan sifat darajasi o'rnatiladi. Sifat darajasi ( $S_d$ )- bu baholanayotgan mahsulot sifatini ( $U$ ) negiz mahsulot sifatiga ( $U_n$ ) nisbatidir:

$$S_d = \frac{U}{U_n}$$

Bunda albatta negiz mahsulot sifati ehtiyojni to'laroq qondiradi deb hisoblanadi. Sifat darajasini baholash sifatni rejalashtirish uchun, mahsulot bahosini shakllantirish uchun muhim ahamiyatga egadir. Negiz (etalon) tovar sifati ilmiy-texnik taraqqiyot yutuqlari natijasida, ehtiyojlarning o'zgarib borishi natijasida doimiy ravishda o'zgarib boradi.

Tovar sifati darajasini baholashning yuqoridagi usuldan tashqari differentsiallangan usuli, kompleks usuli va aralash usullari mavjud.

Tovar sifatini nazorat qilish- uning sifat ko'rsatkichlarining me'yoriy-texnik talablarga, standartlarga mos kelish darajasini aniqlashdir. Standartlar va texnik shartlar tovarning funktsional, ergonomik ko'rsatkichlarini, uning ishonchliligi, xavfsizligini, tashqi ko'rinishiga qo'yiladigan talablarni, tovarning navini, tovarni markalash, o'rash-joylash tartibini, tashish va saqlash shartlarini belgilab beradi.

Tovar navlari- bir-biridan sifat ko'rsatkichlari (bir yoki bir nechta) bilan farq qiladigan tovarlardir. Masalan chinni buyumlar rangining tiniqligi, ishlov berish va bezash darajasi kabi ko'rsatkichlar bo'yicha navlanadi.

Texnik jihatdan murakkab bo'lgan tovarlar odatda navlarga ajratilmaydi, ular yaroqli va yaroqsiz tovarlarga ajratiladi.

Tovar sifati nazorat asosan korxonada amalga oshiriladi. Bu vazifa unga ma'sul bo'lgan texnik nazorat bo'limi (TNB) tomonidan amalga oshiriladi va u quyidagi bosqichlardan iboratdir: kirish nazorati- xom ashyo, materiallar sifatining nazorati, operatsion nazorat- ishlab chiqarish jarayonida texnologiyaga to'liq rioya etilishining nazorati, qabul qilish nazorati- tayyor mahsulotni sifatning barcha kattaliklari bo'yicha qabul qilish va markalashdan iborat bo'ladi. Tovar sifati vakolatli davlat mussasalari tomonidan, ulgurji xaridorlar, vositachilar, chakana savdo korxonalari tomonidan ham nazorat qilinadi. Nazoratning bunday turli-tumanligi iste'molchiga yaroqsiz mahsulot kelib qolishining oldini oladi. Shuningdek raqobat darajasining oshib borishi ham tovar sifatining avvalo ishlab chiqaruvchining o'zi tomonidan qattiq nazorat qilinishini ta'minlaydi, chunki ishlab chiqaruvchi sifati past mahsulot bilan o'zining bozordagi obro'-e'tiboriga putur etkazishdan, iste'molchilarini yo'qotib qo'yishdan hech ham manfaatdor emas. Tovar sifatini boshqarish deganda etarli darajadagi sifatni o'rnatish, ta'minlash va qo'llab-quvvatlab turish maqsadida tovarni yaratish, undan foydalanish va iste'mol qilish jarayonida amalga oshiriladigan harakatlar yig'indisi tushuniladi.

Bugungi kunda sifat menejmenti tizimi degan tushuncha mavjud bo'lib, u pirovard natijada sifatga erishish maqsadida korxonaning butun ishlab chiqarish-xo'jalik faoliyatini boshqarishni bildiradi. Zamonaviy shart-sharoitlarda sifat tizimiga beriladigan sertifikat iste'molchilar bilan mahsulot etkazib berish bo'yicha tuziladigan shartnomalar uchun va bozorda raqobat ustunligini ta'minlab beruvchi hal qiluvchi omil hisoblanadi. XX asrning 70-80 yillaridan boshlab sifatni nazorat qilish tizimidan sifat menejmenti tizimiga o'tila boshlandi (TQM). O'sha vaqtlarda bir nechta xalqaro sifat tizimlari yuzaga kela boshladi va ISO 9000 tizimi (1987 yilda joriy qilingan) sifatni ta'minlash va boshqarishda etakchi mavqega ega bo'lib qoldi. ISO- standartlashtirish bo'yicha xalqaro tashkilot bo'lib, unga 1947 yilda Jeneva shahrida asos solingan. Respublikamiz mustaqil davlat bo'lgandan buyon bizning sanoat korxonalarimiz, bank, sug'urta kompaniyalarimiz kabilar uchun ISO 9000 standarti sertifikatiga erishish muhim masala bo'lib qoldi. Bugungi kunda har yili o'rtacha 10-25 ta tovar va xizmatlar ushbu sertifikatlarni olishga erishmoqda.

## **7-Amaliy mashg`ulot**

### **Sertifikatlashtirish, sertifikatlashtirish bo'yicha asosiy tushunchalar, atamalar, Sertifikatlashtirish xaqida Respublika qonuni**

Reja;

1. Sertifikatlashtirish bo'yicha asosiy tushuncha va atamalar
2. Akkreditlash tizimi
3. Mahsulot va xizmatlarni sertifikatlashtirish to'g'risida"gi qonun
4. Sertifikatlashtirishning qonuniy va me'yoriy-huquqiy asoslari va milliy tizimi

#### 1. Sertifikatlashtirish bo'yicha asosiy tushuncha va atamalar

Sertifikatlashtirish mahsulot sifati va xavfsizligini ta'minlash shakllaridan biri sifatida butun dunyoda tan olingan. Sertifikatlashtirish uchun sertifikatlashtirish obyektlari va subyektlariga yagona talablarni belgilagan me'yoriy hujjatlar mavjud bo'lishi shart.

- Atamalar va ta'riflarning birliligi qo'yilgan vazifalarni tushunish va sertifikatlashtirish protseduralarini muvaffaqiyatli o'tkazish uchun ahamiyatlidir.

- O'zbekiston Respublikasida xalqaro standart ISO/MEK 2:1996 "Standartlashtirish va yondosh faoliyat turlari. Umumiy lug'at" asosida yaratilgan O'z DSt 5.5:1999 "O'z SMT. Asosiy atamalar va ta'riflar" va sifat menejmenti tizimlari bo'yicha O'z DSt ISO 9000:2002 amalda qo'llanilmoqda.

Sertifikatlashtirish deganda, mahsulot (buyum, tovar) yoki xizmat muayyan standartga yoki texnikaviy shartlarga muvofiq kelishini tasdiqlash maqsadida o'tkaziladigan faoliyat tushunilib, ushbu faoliyat natijasida mahsulot (buyum, tovar)ning sifati haqida iste'molchini ishontiradigan tegishli hujjat - sertifikat beriladi.

- Sertifikatlashtirish deganda, mahsulot (buyum, tovar) yoki xizmat muayyan standartga yoki texnikaviy shartlarga muvofiq kelishini tasdiqlash maqsadida o'tkaziladigan faoliyat tushunilib, ushbu faoliyat natijasida mahsulot (buyum, tovar)ning sifati haqida iste'molchini ishontiradigan tegishli hujjat - sertifikat beriladi.

- Sertifikatlashtirishning milliy tizimi - davlat miqyosida amal qiladigan sertifikatlashtirish o'tkazishda o'z tartib va boshqaruv qoidalariga ega bo'lgan tizim.

- Muvofiqlik sertifikati - sertifikatlangan mahsulotning belgilangan talablarga muvofiqligini tasdiqlash uchun sertifikatlashtirish tizimi qoidalariga binoan berilgan hujjat.

- Muvofiqlik belgisi - muayyan mahsulot yoki xizmatning aniq standartga yoki boshqa normativ hujjatga mos ekanligini ko'rsatish uchun mahsulotga yoki ko'rsatilgan xizmatga doir hujjatga qo'yiladigan, belgilangan tartibda ro'yxatga olingan belgi.

Bir turdagi mahsulotlarni sertifikatlashtirish tizimi – ayni bir xil standartlar va qoidalar qo'llaniladigan muayyan mahsulotlar, ishlar yoki xizmatlarga taalluqli sertifikatlashtirish tizimi.

- Bir turdagi mahsulotlarni sertifikatlashtirish tizimi – ayni bir xil standartlar va qoidalar qo'llaniladigan muayyan mahsulotlar, ishlar yoki xizmatlarga taalluqli sertifikatlashtirish tizimi.

- Sinov laboratoriyasini akkreditlash – sinov laboratoriyasining (markazining) muayyan mahsulot sinovini yoki muayyan sinov turini amalga oshirishga doir vakolatlarining nufuzli organ tomonidan rasmiy e'tirof qilinishi.

- Sertifikatlashtirish organi – sertifikatlashtirishni o'tkazuvchi organ.

- Sinash – bu o'rnatilgan muolajaga muvofiq holda bir yoki bir nechta xarakteristikani aniqlash.

- Sinash laboratoriyasi – sinashlarni o'tkazadigan laboratoriya.

2. Akkreditlash tizimi – Akkreditlashni o'tkazish uchun protseduralar va boshqaruvning o'z qoidalariga ega bo'lgan tizim.

- Akkreditlash tizimi – Akkreditlashni o'tkazish uchun protseduralar va boshqaruvning o'z qoidalariga ega bo'lgan tizim.

- Akkreditlash – Protsedura bo'lib, uning vositasida vakolatli idora shaxs yoki idoraning muayyan ishni bajarish huquqiga ega ekanligini rasmiy tan oladi.

- Akkreditlash bo'yicha idora – Akkreditlash tizimini boshqaruvchi va akkreditlashni o'tkazuvchi idora.

- Inspeksiya tekshiruvi – sertifikatlashtirish va akkreditlashda o'rnatilgan talablarga muvofiqligini tasdiqlash maqsadida sertifikatlashtirilgan mahsulot, sifat yoki ishlab chiqarishni boshqarish tizimlari, sertifikatlashtirish bo'yicha idoralar, sinash laboratoriyalari (markazlari) ning faoliyatini takroriy baholash protsedurasi.

- Sifat – O'z tafsilotlari majmuining talablarga muvofiqlik darajasi.

- Sifat menejmenti tizimi – Sifatga nisbatan tashkilotga rahbarlik qilish va boshqarish uchun menejment tizimi.

- Sifat sohasidagi siyosat – yuqori rahbariyat tomonidan ifodalangan sifat sohasida tashkilotning umumiy maqsad va faoliyat yo'nalishi.

Sertifikatlashtirish ikki xil bo'ladi, bular majburiy va ixtiyoriy.

- Sertifikatlashtirish ikki xil bo'ladi, bular majburiy va ixtiyoriy.

- Mahsulotni u yoki bu sertifikatlashtirishga oidligi, uning tashqi muhitga, inson salomatligiga ta'siri asosiy mezon hisoblanadi. Ana shuning uchun tashqi muhitga, inson salomatligiga ta'sir ko'rsatuvchi mahsulotlar albatta, majburiy sertifikatlashtirishga mansub bo'ladi, qolgan mahsulotlarning sertifikatlashtirilishi esa ixtiyoriydir.

- Majburiy sertifikatlashtirish deganda, sertifikatlashtirish huquqiga ega bo'lgan idora tomonidan mahsulot, jarayon, xizmatining standartlardagi majburiy talablarga muvofiqligini tasdiqlash tushuniladi.

•Ixtiyoriy sertifikatlashtirish deganda ishlab chiqaruvchi (bajaruvchi), sotuvchi (ta'minlovchi) yoki iste'molchi tashabbusi bilan ixtiyoriy ravishda o'tkaziladigan sertifikatlashtirish tushuniladi.

•Mazkur qonun 1993 yil 28 dekabrda qabul qilingan bo'lib, 4 ta bob va 23 ta moddadan tashkil topgan.

•Mazkur qonunga quyidagilarga muvofiq o'zgartirishlar kiritilgan:

•O'zR 31.08.2000 y. 125-II-son qonuni,

•O'zR 25.04.2003 y. 482-II-son qonuni,

•O'zR 06.04.2006 y. O'R-31-son qonuni,

•O'zR 10.10.2006 y. O'R-59-son qonuni

•2. "Mahsulot va xizmatlarni sertifikatlashtirish to'g'risida"gi qonun shartlari

"Mahsulot va xizmatlarni sertifikatlashtirish to'g'risida"gi qonun sharhlari

•I BOB. UMUMIY QOIDALAR

•1-modda. Asosiy tushunchalar.

•2-modda. Sertifikatlashtirishning maqsad va vazifalari.

•3-modda. Sertifikatlashtirish to'g'risidagi qonun hujjatlari.

•4-modda. Xalqaro shartnomalar va bitimlar.

•5-modda. O'zbekiston Respublikasining sertifikatlashtirish organlari.

•II BOB. SERTIFIKATLASHTIRISH FAOLIYATIGA DOIR UMUMIY

TALABLAR

•7-modda. Muvofiqlik sertifikati va muvofiqlik belgisi.

•8-modda. Sertifikatlashtirish faoliyatini amalga oshirish.

•9-modda. Sertifikatlashtirish to'g'risida axborot.

"Mahsulot va xizmatlarni sertifikatlashtirish to'g'risida"gi qonun sharhlari

•sulotlarni majburiy va ixtiyoriy sertifikatlashtirish

•10-modda. Majburiy sertifikatlashtirishni joriy etish

•11-modda. Majburiy sertifikatlashtirishni o'tkazish shartlari

•12-modda. Majburiy sertifikatlashtirilishi lozim bo'lgan ma'sulotlarga o'yiladigan talablar

•13-modda. Tayyorlovchilarning (tadbirkorlarning) ma'sulotlarni majburiy sertifikatlashtirish va?tidagi majburiyatlari

•14-modda. Chetdan olib kelinadigan va chetga olib chi?ib ketiladigan ma'sulotlarni majburiy sertifikatlashtirish

•15-modda. Majburiy sertifikatlashtirish ishlarining davlat tomonidan moliyaviy ta'minoti

•16-modda. Majburiy sertifikatlashtirish ?oidalariga rioya etilishini davlat tomonidan tekshirish va nazorat ?ilish

•16-1-modda. Nazorat yo'sinidagi tekshiruv

•17-modda. Ihtiyoriy sertifikatlashtirish

•18-modda. Ihtiyoriy sertifikatlashtirishni amalga oshiruvchi sub'ektlar

•19-modda. Ihtiyoriy sertifikatlashtirish tizimlari

- Mahsulotlar (shu jumladan dasturiy va boshqa ilmiy-texnikaviy mahsulotlar), xizmatlar, shuningdek sifat tizimlari sertifikatlashtirish obyektlari hisoblanadi.

- "O'zstandart" agentligining o'zi, uning tomonidan akkreditatsiya qilingan yoki e'tirof etilgan sertifikatlashtirish organlari, sinov laboratoriyalari (markazlari), sertifikatlashtirish sohasidagi tekshiruv organlari, sifat bo'yicha ekspert-auditorlar, shuningdek mahsuloti sertifikatlashtirilishi lozim bo'lgan korxonalar,

- muassasalar, tashkilotlar, jismoniy shaxslar sertifikatlashtirish subyektlaridir.

- 6-modda. Sertifikatlashtirish obyektlari va subyektlari  
9-modda. Sertifikatlashtirish to'g'risida axborot

- "O'zstandart" agentligi tayyorlovchilarni (ijrochilarni), sotuvchilarni, iste'molchilarni va boshqa manfaatdor shaxslarni sertifikatlashtirishning amaldagi tizimlari, ularning organlari, sinov laboratoriyalari (markazlari), ekspertlar to'g'risida, shuningdek muvofiqlik sertifikatlari, muvofiqlik belgilari va ularni qo'llash qoidalari to'g'risida xabardor etib boradi.

- Sertifikatlashtirish organlari arizachiga uning talabiga binoan mahsulotni sertifikatlashtirish uchun kerakli axborotni berishlari shart.

- Arizachi sertifikatlashtirish organining talabiga binoan sertifikatlashtirish bilan bog'liq axborotni taqdim etishi shart, tijorat siri hisoblangan ma'lumotlar bundan mustasno

“Mahsulot va xizmatlarni sertifikatlashtirish to'g'risida”gi qonun

- 16-modda. Majburiy sertifikatlashtirish qoidalariga rioya etilishini davlat tomonidan tekshirish va nazorat qilish

- Tayyorlovchilarning (tadbirkorlarning, sotuvchilarning, ijrochilarning) majburiy sertifikatlashtirish qoidalariga rioya etishlari ustidan davlat tekshiruvi va nazoratini "O'zstandart" agentligining davlat inspektorlari qonun hujjatlarida belgilab qo'yilgan tartibda amalga oshiradi.

- 17-modda. Ixtiyoriy sertifikatlashtirish

- Har qanday mahsulot normativ hujjatlarning talablariga muvofiq ekanligini tasdiqlash uchun u yuridik va jismoniy shaxsning tashabbusi bilan ixtiyoriy sertifikatlashtirishdan o'tkazilishi mumkin.

- 18-modda. Ixtiyoriy sertifikatlashtirishni amalga oshiruvchi subyektlar

- Ixtiyoriy sertifikatlashtirishni "O'zstandart" agentligi belgilab qo'ygan tartibda akkreditatsiya qilingan yuridik va jismoniy shaxslar amalga oshirishga haqlidir.

4. Sertifikatlashtirishning qonuniy va me'yoriy-huquqiy asoslari va milliy tizimi

- Quyidagilar sertifikatlashtirishning qonuniy va me'yoriy-huquqiy asoslarini tashkil etadi:

- O'zbekiston Respublikasining “Mahsulot va xizmatlarni sertifikatlashtirish to'g'risida”gi qonuni;



- O'zbekiston Respublikasining “Oziq-ovqat mahsulotlarining sifati va xavfsizligi to'g'risida”gi qonuni;

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994 yil 12 avgustdagi 409-sonli “Sertifikatlanishi majburiy bo'lgan mahsulotlar ro'yxatini, sertifikatlashtirishni o'tkazish tartibini, O'zbekiston Respublikasi hududiga xavfsiz ekanini tasdiqlash talab qilinuvchi tovarlarni olib kirish va o'z hududidan olib chiqishi tartiblarini tasdiqlash haqida”gi qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 3 oktabrdagi 342-sonli “Mahsulot va xizmatlarni standartlashtirish, metrologiyasi va sertifikatlashtirishni takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida”gi qarori;

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 3 oktabrdagi 342-sonli “Mahsulot va xizmatlarni standartlashtirish, metrologiyasi va sertifikatlashtirishni takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida”gi qarori;

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 5 dekabrda 427-sonli “O'zbekiston Respublikasiga iste'mol tovarlarini olib kirishni takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlarni tatbiq etish haqida”gi qarori;

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 6 iyuldagi 318-sonli “Mahsulotlarni sertifikatlashtirish tartibotini soddalashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi qarori;

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 5 avgustdagi 373-sonli “Mahsulotlar va xizmatlarning standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish tizimini takomillashtirish soha-tadbirlari to'g'risida” qarori;

- Sertifikatlashtirish milliy tizimining asoslanuvchi me'yoriy hujjatlari;

“O'zstandart” agentligi O'zbekiston Respublikasining sertifikatlashtirish bo'yicha milliy organi bo'lib, amaldagi ?onunchilikka binoan ?uyidagi faoliyatlarni bajaradi:

- sertifikatlashtirish sohasida davlat siyosatini amalga oshiradi;

- mahsulotlar, ishlar va xizmatlar sertifikatlanishini o'tkazish bo'yicha xalqaro me'yorlar va standartlar bilan uyg'unlashgan umumiy qoidalar hamda tartiblarni o'rnatadi;

- sertifikatlashtirish tizimini takomillashtirish bo'yicha dasturlar loyihalarini ishlab chiqadi va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga ko'rib chiqish uchun taqdim etadi;

- Vazirlar Mahkamasi bilan kelishilgan holda sertifikatlashtirishning xalqaro tizimlariga qo'shilish haqidagi qarorlarni qabul qiladi hamda standartlashtirish natijalarini o'zaro tan olish hususida kelishuvlar tuzadi;

O'zga davlatlar bilan o'zaro munosabatlarda va xalqaro tashkilotlarda sertifikatlashtirish masalalari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi nomidan ish ko'radi;

- O'zga davlatlar bilan o'zaro munosabatlarda va xalqaro tashkilotlarda sertifikatlashtirish masalalari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi nomidan ish ko'radi;

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi bilan kelishilgan holda sertifikatlanishi majburiy bo'lgan mahsulotlar ro'yxatini belgilaydi;
- O'zbekiston Respublikasi sertifikatsiyalashtirish milliy tizimiga rahbarlik qiladi;
- mahsulot, ishlar va xizmatlarni majburiy sertifikatsiyalashtirish xususidagi qonunchilikka rioya etilishi ustidan davlat nazoratini amalga oshiradi;
- Bir xildagi mahsulot sertifikatsion tizimi, sertifikatlangan mahsulot, sifat tizimlari, sifat bo'yicha ekspert-auditorlar davlat reestrini olib boradi.

## **8-Amaliy mashg'ulot**

### **Sertifikatlashtirish, sertifikatni olish tartibi, usullari, mahsulot sifatini boshqarish sxemasi, mahsulotni kodlash**

Reja;

1. Sertifikatlashtirish bo'yicha ISO
2. Sertifikatlashtirishni tayyorlash va uni o'tkazish
3. O'zaro almashinuvchanlik asoslari
4. O'zbekistonda shtrix-kodlash tizimi

#### 1. Sertifikatlashtirish bo'yicha ISO

Tarkibidagi qo'mita tomonidan tayyorlangan hujjatda uchinchi tomon tarafidan amalga oshiriladigan sertifikatlashtirishning sakkizta sxemasi berilgan:

Birinchi sxema. Bu sxema bilan faqat mahsulot namunalari turlarini standartlar talablariga muvofiqligini maxsus tasdiqlangan sinov tashkilotlarida sinovdan o'tkaziladi. Bu xildagi sertifikatlashtirishda sinovga taqdim etilgan namunani belgilangan talablarga muvofiqligi tasdiqlanadi, xolos. Bu yo'l o'zining soddaligi va uncha ko'p xarajat talab qilmasligi tufayli milliy va xalqaro savdo munosabatlarida muayyan darajada tarqalgan.

Ikkinchi sxema. Bu sxemada mahsulotning namuna turlarini maxsus tasdiqlangan sinov tashkilotlarida sinovdan o'tkazilib, so'ngra uning sifatini savdo shaxobchalaridan vaqti-vaqti bilan olinadigan namunalar asosida nazorat qilib boriladi. Bu usul taqdim etilgan namunalar sifatini baholash bilan seriyali chihayotgan mahsulotning sifatini ham baholash imkonini beradi. Usulning afzalligi uning soddaligidadir. Uning kamchiligiga esa nazorat sinovlar natijasiga qarab, agar mahsulot standart talablariga nomuvofiqligi aniqlanilsa, baribir uni savdo shaxobchalaridan chiqarib tashlash mumkin bo'lmaydi yoki uni chiqarib tashlash uchun birmuncha qiyinchiliklar tug'iladi.

Uchinchi sxema. Mahsulot namunalari turlarini maxsus, tasdiqlangan sinov tashkilotlarida o'tkazish, so'ngra sotuvchi yoki iste'molchiga yubormasdan turib vaqti-vaqti bilan namunalarining tekshiruvini nazorat qilishga asoslanadi. Ikkinchi sxemadan farqlanuvchi tomoni shuki, mahsulot savdo shaxobchalariga tushmasdan turib, sinov nazorati o'tkaziladi va standartga nomuvofiqligi aniqlansa, mahsulotning iste'molchiga jo'natilishi to'xtatiladi.

To'rtinchi sxema. Mahsulot namunalari turlarini xuddi 1-3-sxemalardek sinovdan o'tkazishga asoslangan bo'lib, so'ngra savdo shaxobchasidagi hamda ishlab

chiqarishdan olingan namunalarning tekshirish nazorati vaqti-vaqti bilan o`tkazish orqali mahsulotning sifati hisobga olinadi. Bu holda mahsulot ishlab chiqarilgan bo`lib, uning chiqarilishiga ma'lum xarajatlar bo`lgandan keyin standart talablariga nomuvofiqligi aniqlanadi.

Beshiichi sxema. Bu sxema mahsulot namuna turlarini tasdiqlangan sinov tashkilotlarida o`tkazishga va mahsulot ishlab chiqarishning sifatini baholashga asoslangan bo`lib, so`ngra savdo shaxobchasida va ishlab chiqarishda namunalarning sifatini vaqti-vaqti bilan tekshirilib nazorat qilib boriladi. Bu sertifikatlashtirish usuli faqat mahsulotning sifatini nazorat qilibgina qolmay, balki korxonada chiqariladigan mahsulotning sifatini kerakli darajada bo`lishini ham nazorat qiladi. Tabiiyki, korxonadagi mahsulot sifatini ta'minlashda, tizimni baholanishida uning mezonini aniqlash muhim ahamiyatga ega. Ushbu usul sanoati rivojlangan mamlakatlarda hamda xalqaro sertifikatlashtirish tizimlarida eng ko`p tarqalgan sxemadir. Birinchi, to`rtinchi sxemalarga qaraganda bu sxema eng murakkab va nisbatan qimmatroq turadigan sxema bo`lib, uning afzalligi iste'molchi mahsulot sifat darajasini yuqori ekanligiga ishonch hosil qiladi, bu esa asosiy mezon hisoblanadi.

Oltinchi sxema faqat korxonadagi mahsulotning sifatini ta'minlash bilan tizimni baholanishini o`tkazishga mo`ljallangan. Bu usul ayrim vaqtda korxonatayyorlovchini attestatlash deb ham yuritiladi. Bu xil sertifikatlashtirishda faqat korxonaning belgilangan sifat darajadagi mahsulotni chiqarish qobiliyati baholanadi.

Yettinchi sxema. Mahsulotning har bir tayyorlangan to`dasidan sinovlarga tanlab olishga asoslangan. Tanlab olish sinovlarining natijalariga qarab to`dani ortish uchun qaror qabul qilinishi aniqlanadi. Bu xildagi sertifikatlashtirish uchun tanlanmaning hajmi aniqlanishi lozim, bu esa tayyorlangan to`daning katta-kichikligiga maqbul bo`ladigan sifat darajasiga bog`liq. Qabul qilingan qoidaga asosan tanlanma sinov tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladi. Bu xil sertifikatlashtirish qo`llanilishi, statistik usulni qo`llash bilan bog`liqdir.

Sakkizinchi sxema. Har bir tayyorlangan, buyumning standartlar talabiga muvofiqligi sinovlar o`tkazib aniqlashga asoslangan. Bu sertifikatlashtirish usulida yuqorida 1-7 sxemalariga qaraganda ta'minlovchining mas'uliyati ancha yuqori. Tabiiyki muvaffaqiyatli sinovlardan o`tgan buyumlarga sertifikat yoki muvofiqlik belgisini oladi. 8- sxema mahsulotga nisbatan yuqori va qat'iyroq talablar qo`yilganda ishlatilishga asoslangan yoki mahsulotning ishlatilishi natijasida standart talablariga mos kelmasligi iste'molchiga katta iqtisodiy zarar yetkazganida qo`llaniladi. Bu xil sertifikatlashtirish qimmatbaho metallardan va qotishmalardan tayyorlanadigan buyumlarda ko`proq qo`llaniladi. Bundan asosiy maqsad qimmatbaho metallarning belgilangan miqdorini, tarkibini va buyumning tozaligini tekshirishdir.

Sertifikatlashtirish sohasidagi ishlarni amalga oshirishda quyidagi asosiy omillar hal qiluvchi o`rin tutadi:

- tashqi va ichki bozordagi iste'molchining manfaatlariga mos keladigan mahsulot uchun mezonni to`g`ri tanlash;

- sertifikatlashtirish ishlarini o`tkazishda xolislik (haqqoniyat) bo`lishi.

Ta'minlovchining buyumi (mahsuloti) har doim ham belgilangan standart talablariga mos keladi degan ko`rsatmasi hamma vaqt ham qabul qilinavermaydi.

Chunki u mahsulot sifatini tekshirishda o`zining shaxsiy tekshirish tizimiga tushadi, bu deyarli bozorda ham, sanoatda ham keng yoyilgan yo`llardan biridir.

Lekin hozirgi zamon fan, texnika va texnologik jarayonlarning eng qulay va samarador tizimi shunday bo`lishi lozimki, buning natijasida mahsulot ishlab chiqaruvchiga nisbatan hech qanday ta'sir etilmasligi lozim. Tashqi savdo va xalqaro iqtisodiy aloqalar nuqtai nazaridan sertifikatlashtirish faoliyati mustaqil bo`lishi alohida ahamiyat kasb etadi. Shunday sertifikatlashtirishni boshqaruvchi idora standartlashtirish idoralari hamda tijorat tashkilotlari yoki davlat muassasalari bo`lishi mumkin. Ular o`zlarining sinov o`tkazuvchi laboratoriyalariga ega bo`lib, mahsulotni tekshiradigan xodimni ishga layoqatliligini tekshiradi hamda korxonalarda sifat tizimini boshqarishdagi ishlarni amalga oshiradi, uslubiy ta'minlash va boshqa quyidagi ishlarni bajaradi:

- texnologik jarayonlarning turkumligini ta'minlash;

- uchinchi tomon tarafidan bajariladigan sertifikatlashtirish tizimi o`z tarkibiga mahsulot sinovlarini oladi, bu esa o`z navbatida mahsulotni standart talablariga muvofiqligini, mosligini aniqlashda kerakli vosita hisoblanadi;

- yakka olinadigan mahsulot uchun amaliy va iqtisodiy talablarga javob beruvchi sertifikatlashtirish tizimini aniqlash;

- sertifikatlashtirish tartib, usullari va ishlashini boshqa sertifikatlashtirish tizimlari bilan taqqoslash;

- buyum (mol) yoki mahsulotlarni sertifikatlashtirish idorasi tomonidan haqiqiyliги ko`rib chiqilganligi yoki ma'qullanganligini, tegishli markazlarda yoki akkreditatsiyalangan laboratoriyalarda tekshirilganligini isbotlovchi belgi (tamg`a) bo`lishi, maxsus belgi, etiketkalar, ilova qilib yuboriladigan hujjat-sertifikatlar yoki sertifikatlashtirilgan buyumlar ro`yxatiga kiritilishi lozim yoki sertifikatlash huquqiga ega bo`lgan korxonada mahsulotni chiqarish uchun tasdiqnomasi bo`lishi kerak.

Sertifikatlashtirish turli shakllarda bo`lib, uni tayyorlash va o`tkazish uchun ayrim vazifalarni bajarish tartibi o`z navbatida mahsulot turiga, qonunlar majmuining milliy xususiyatlariga va boshqa qator omillarga bog`liq bo`ladi.

2. Sertifikatlashtirishni tayyorlash va uni o`tkazishda asosiy ishlar qatoriga:

- sertifikatlashtiriluvchi mahsulotni tanlash;

- mahsulotga sertifikatlashtirishda belgilanadigan talablarni, tavsiflarni tanlash;

- sertifikatlashtiriluvchi mahsulotni ishlab chiqarish sharoitlarini tekshirish;

- sinov laboratoriyalarini akkreditlash;

- sertifikatlashtirish sinovlarini o`tkazish;

- muvofiqlik sertifikatini berish va muvofiqlik belgisi bilan mahsulotni belgilash (tamg`alash)lar kiradi.

Tabiiyki, "Sertifikatlashtirish uchun nimalar kerak" degan o`rinli savol tug`ilishi mumkin. Sertifikatlashtirish milliy tizimining me'yoriy hujjatlarida sertifikatlashtirishga tayyorgarlik ko`rish va uni o`tkazish tartiblari aniqlangan bo`lib, ular quyidagi bosqichlardan iborat:

- sertifikatlashtirish o`tkazishga talabnoma berish;

- deklaratsiya – talabnoma bo`yicha qaror qabul qilish;

- namunalarni belgilash, ajratib olish va sinovlarni o`tkazish;

- korxonada yoki sifat tizimini sertifikatlashtirish (agar qabul qilingan sertifikatlashtirish tartibida ko`rsatilgan bo`lsa yoki so`rovchining xohishiga ko`ra);
- olingan natijalarni tahlil qilish va muvofiqlik sertifikatini berish lozimligi haqida qaror qabul qilish;
- muvofiqlik sertifikatini berish va sertifikatlashtirilgan mahsulotni Tizimlar Davlat Ro`yxatiga kiritish;
- chet el yoki xalqaro idoralar tomonidan berilgan muvofiqlik sertifikatini tan olish;
- sertifikatlashtirilgan mahsulotning tavsiflarini turg`unligi uchun tekshiruv nazoratini amalga oshirish;
- sertifikatlashtirish natijalari haqida ma'lumot;
- shikoyatlarni ko`rish (agar da'volashuv masalalari chiqadigan bo`lsa).

### 3. O`zaro almashinuvchanlik asoslari

Moslashuvchanlik esa, ma'lum sharoitlarda belgilangan talablarni bajarish uchun nomaqbul ta'sir ko`rsatmasdan mahsulot, jarayon yoki xizmatlarni birgalikda qo`llanishiga yaroqliligi deb tushuniladi.

O`zaro almashuvchanlik – bir xil talablarni bajarish maqsadida bir buyum, jarayon, xizmatdan foydalanish o`rniga boshqa bir buyum, jarayon, xizmatning yaroqliligidan iborat.

Har xillikni boshqarish (unifikatlashtirish yoki birxillashtirish) deb, muayyan ehtiyojini qondirish uchun zarur bo`lgan eng maqbul o`lchamlarni yoki mahsulot, jarayon va xizmat turlarini tanlashga aytiladi.

O`zaro almashinuvchanlik mashinalardan foydalanishni soddalashtiradi. Mashinalarning ta'miri, amalda singan va yeyilgan detallarni almashtirish bilan cheklanadi. Bu esa, mashinalar yig`ish va ta'mirlash jarayonida yuqori malakali ishchilar talab qilinmaydi.

Uzel va detal konstruksiyasiga o`zaro almashinuvchanlik quyidagi asosiy talablarni qo`yadi:

- uzeln va detallarning shaklini soddalashtirish ularni tayyorlashni arzonlashtiradi va kerakli aniqlikda ishlov berishni ta'minlaydi;
- tutashuvchi o`lchamlar sonini kamaytirish;
- chizmada o`lchamlarni to`g`ri qo`yish va ularning aniqligiga asoslangan talablarni yozish;
- detalni tayyorlash uchun asoslangan material tanlash.

*Tashqi o`zaro almashinuvchanlik.* Boshqa, yanada murakkabroq buyumlarga o`rnatiladigan tayyor buyumlarning va yig`ma qismlarning foydalanish ko`rsatkichlari bo`yicha, shuningdek birlashtiriladigan yuzalarning o`lchamlari hamda shakli bo`yicha o`zaro almashuvchanligi.

*Ichki o`zaro almashinuvchanlik.* Qismlar tarkibiga kirgan alohida detallarning yoki buyum tarkibiga kiruvchi qismlar va mexanizmlarning o`zaro almashuvchanligi.

*Guruhli o`zaro almashinuvchanlik.* Oldindan o`lchamlari bo`yicha novlarga ajratilgan elementlar guruhlari doirasidagina kiritish va almashtirish mumkin bo`lgan xossa.



To'liqmas (cheklangan) o'zaro almashinuvchanlik talab etilgan aniqlikni hosil qilish uchun detallar guruhlariga ajratib tanlash, kompensatorlar o'rnatish, mashina va asboblardagi ba'zi qismlarning holatini rostdlash. Moslash usullari va boshqa tadbirlar qo'llaniladigan o'zaro almashinuvchanlik.

*To'liq o'zaro almashinuvchanlik.* Buyumlarning talab etilgan darajada sifatli bo'lishi uchun detallarning geometrik, mexanikaviy, elektr va boshqa ko'rsatkichlari birlashtiriladigan har qanday detallarni va tarkibiy qismlarni qo'shimcha ishlovsiz, moslamasdan, to'plamasdan yoki rostlamasdan yig'ishga imkon beradigan aniqlikda bajarilganda amalga oshuvchi xossa. O'lchamlar bo'yicha o'zaro almashinuvchanlik funksional o'zaro almashinuvchanlikning tashkil etuvchisi bo'lib, mashinadagi chiziqli va burchak o'lchamlari, tirqishlari, o'qlararo masofalari va shu kabi ko'rsatkichlari o'zaro bog'langan elementlar kompleksining umumiy aniqligi bilan belgilanadigan xossa.

*Funksional o'zaro almashinuvchanlik.* Buyumlarning vaqt davomida belgilangan chegarada maqbul va barqaror foydalanish ko'rsatkichlari bilan ishlash qobiliyatini yoki yig'ma qismlarning maqbul ko'rsatkichlar bilan sifatli ishlashini ta'minlaydigan xossa.

*O'zaro almashinuvchanlik koeffitsiyenti.* O'zaro almashinuvchanlik detallar va tarkibiy qismlarni tayyorlashga sarflangan mehnatning buyumni tayyorlashga sarflangan umumiy mehnatga nisbati.

*O'zaro almashinuvchanlik prinsipi* – boshlang'ich ilmiy- texnikaviy qoidalar majmuasidan iborat bo'lib, ular loyihalash, ishlab chiqarish va foydalanish jarayonlarida bajarilganda detallar, yig'ma qismlar va buyumlarning o'zaro almashuvchanligi ta'minlanadi.

Ob'yektlarning mos keluvchanligi – ob'yektlarning tayyor murakkab buyumda o'z o'rmini egallashi va foydalanishi sharoitlarida birgalikda yoki ketma-ket ishlaganda ularning talab etilgan vazifalarni bajara olish xossasi.

O'lcham – chiziqli kattalik (diametr, uzunlik, va h.k.) ning tanlangan o'lchov birliklaridagi sonli qiymati.

Haqiqiy o'lcham – joiz xatolik bilan o'lchash natijasida aniqlangan haqiqiy o'lchash.

Nominal o'lchash – chekka o'lchamlarni aniqlash va og'ishlarni hisoblash boshi bo'lib xizmat qiladigan o'lcham.

Chekka o'lchamlar – ikkita chekka joiz o'lcham bo'lib, haqiqiy o'lcham ular o'rtasida joylashishi yoki ularga teng bo'lishi lozim.

Og'ish – haqiqiy chekka va h.k o'lchashlarning nominal o'lchamdan algebraik farqi.

Haqiqiy og'ish – haqiqiy va nominal o'lchamlar o'rtasidagi algebraik farqi.

Chekka og'ish – chekka va nominal o'lchamlar o'rtasidagi algebraik farq.

Joizlik – eng katta va eng kichik chekka o'lchamlar o'rtasidagi farq yoki yuqori va quyi og'ishlar o'rtasidagi algebraik farqning mutlaq qiymati.

O'tqazish – bir detalni ikkinchisiga nisbatan siljish darajasi hisoblanadi.

4. O'zbekistonda shtrix-kodlash tizimi

Ba'zan biror mahsulot xarid qilganimizda uning ko'rinarli joyida yoki etiketkasida har xil qalinlikdagi chiziqlar va raqamlar bilan belgilangan shakllarni

ko`rishimiz mumkin. Ularga shtrix-kod nomi berilgan. Xo`sh, shtrix-kodlar nima va qachon paydo bo`lgan.

Shtrix-kodlarni mahsulotlarga nisbatan tadbiq etish g`oyasi ilk bora 30-yillarda AQShning Garvard biznes maktabida yaratilgan bo`lib, undan amalda foydalanish bir necha o`n yillardan so`nggina, ya'ni, 60-yillardan boshlangan. Shtrix-kodlarni dastlabki qo`llovchilar temir yo`lchilar bo`lib, shu usul orqali temir yo`l vagonlarini identifikatsiyalashgan. Mikroprotessor texnikasining gurkirab rivojlanishi 70-yillardan boshlab shtrix-kodlardan keng ravishda foydalanish imkonini yaratdi. 1973 yil AQShda Mahsulotning Universal kodi (IPC) qabul qilinib, 1977 yildan boshlab esa Yevropa Kodlash Tizimi YEAN (Europ YEAN Article

Numbering) ta'sis etildi va hozirda undan nafaqat Yevropada, balki boshqa mintaqalarda ham keng ravishda foydalanishmoqda. 5-rasmda tovar shtrix kod belgisining namunasi keltirilgan. Shtrix-kod ketma-ket almashinib keluvchi qora (shtrix) va oq (probel) rangli, turli qalinlikdagi chiziqlardan iborat bo`lib, bu chiziqlarning o`lchamlari standartlashtirilgan. Shtrix-kodlar maxsus optik qurilmalar-skannerlar yordamida o`qishga mo`ljallangan. Uning vositasida, mikroprotessorlar orqali shtrixlar raqamlarga dekoderlanib, mahsulot haqidagi ma'lumotlar kompyuterga uzatiladi. Ko`pgina iqtisodiy rivojlangan davlatlarda mahsulotning qutisida shtrix-kodning bo`lishi majburiy sanaladi. Aks holda savdo tashkilotlari mahsulotdan voz kechishlari mumkin. Bu xalqaro savdoga ham tegishlidir. Ushbu tizimning iqtisodiy jihatdan samaraliligi mahsulotning 85 foizidan ko`pi kodlashtirilganda yaqqol namoyon bo`ladi. Bundan tashqari, mahsulotga nisbatan bo`lgan talab va ehtiyojlarni shakllantirish, jamlash, hisobga olish, mahsulotni kelishketishini hisob qilib borish, hujjatlarni rasmiylashtirishda, hamda mahsulotlarni saqlash va sotuvidagi nazoratlarni amalga oshirishda alohida o`rin tutadi.

Asosan YYEANning ikki kodidan ko`proq foydalaniladi: 13 razryadli va 8 razryadli raqamli kodlar. Bunda eng ingichka shtrix, birlik sifatida olinadi. har bir raqam (yoki razryad) ikki shtrix va ikki probeldan iborat bo`ladi. 13 razryadli kodning tarkibida quyidagi kodlar ko`rsatiladi:

- davlat kodi ("davlat bayrog`i");
- korxonalar (firma)- tayyorlovchi kodi;
- mahsulotning kodi;
- nazorat soni.

YEAN assotsiatsiyasi turli davlatlar uchun kodlar ishlab chiqqan bo`lib, ushbu kodlardan foydalanish uchun markazlashgan tarzda litsenziyalar tavsiya etadi. Masalan, Fransiya uchun davlat kodi sifatida 30-37, Italiya uchun 80-87 oraliqlari tavsiya etilgan. Ba'zi davlatlarning kodlari uch xonali sondan iborat. Masalan, Gretsiya- 520, Rossiya- 460, Braziliya- 789. 3-ilovada ba'zi bir davlatlarning litsenziya asosida olingan kodlari keltirilgan.

Tayyorlovchi korxonaning kodi har bir davlatda tegishli organlar tomonidan tuziladi. Odatda, bu kod beshta raqamdan iborat bo`lib, davlat kodidan keyin keladi. Mahsulot kodi tayyorlovchi tomonidan tuziladi va u ham beshta raqamdan iborat bo`ladi. Bu kodning rasshifrovkasi standart emas, u mahsulotga taalluqli bo`lgan muayyan xususiyatlarni (belgilarni) yoki faqat tayyorlovchining o`zigagina ma'lum bo`lgan va shu mahsulotning qayd etish tartib raqamini ifodalashi ham mumkin.

Lekin buni ixtiyoriy bermaslik maqsadida shtrixli kodlarni belgilash markazlashtirilgan tarzda olib boriladi.

Nazorat soni YEAN algoritmi bo'yicha kodni skaner vositasida to'g'ri qilganligini tekshirish uchun xizmat qiladi.

YEAN-8 kodi uzun kodlarni belgilab bo'lmaydigan kichik o'ramlar (upakovkalar) uchun mo'ljallangan. YEAN-8 kodi quyidagi kodlar tartibidan iborat:

- davlat kodi ("davlat bayroqi");
- korxonalar (firma)- tayyorlovchi kodi;
- nazorat soni.

Ba'zan, tayyorlovchi korxonalar kodining o'rniga mahsulotning qayd etish tartib raqami keltirilishi ham mumkin.

